

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO'LIMI

QO'LYOZMA

HUQUQIDA

UDK:

DJO'RAYEVA (MAMATQULOVA) MUZZAM RO'ZIMAT QIZI

**“ABDULLA ORIPOV DOSTONLARINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI”**

5A111201- O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.V.Ergashova

“ ___ ” _____ 2020-yil

_____ **imzo**

Kafedra mudiri: f.f.n, dotsent Sh.Akramov

“Himoyaga tavsiya etildi”

“ ___ ” _____ 2020-yil

_____ **imzo**

Magistratura bo'limi boshlig'i: falsafa doktori (PhD O.O.Bozorov)

“Himoyaga ruxsat berildi”

“ ___ ” _____ 2020-yil

_____ **imzo**

QO'QON
MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. BADIY NUTQNING LINGVOPOETIK ASPEKTD A O'RGANILISHI	
1.1.Lingvopoetikaning nazariy shaklanishi.....	12
1.2.Lingvopoetik tadqiqotning badiiy asar tahlilidagi o'rni.....	22-26
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	27
II BOB.ABDULLA ORIPOV DOSTONLARINING LEKSIK – SEMANTIK XUSUSIYATLARI	
2.1.Lingvopoetik tahlilda so'zlarning ma'noviy va shakliy munosabatlari.....	28-38
2.2.Dostonlar tilida eskirgan leksemalarning ifoda imkoniyatlari.....	38-44
2.3. Individual neologizm yaratish uslubi.....	44-47
2.4.Premalarning badiiy-stilistik xususiyatlari.....	47-54
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	54-55
III BOB. ABDULLA ORIPOV DOSTONLARIDA QO'LLANILGAN KO'CHIMLARNING LINGVOPOETIK TADQIQI	
3.1.So'zlarning semantik qurilishidagi o'zgarishlar.....	56-69
3.2. Dostonlar tilida asosiy ko'chimlar.....	69-81
Bob bo'yicha qisqa xulosalar.....	82
UMUMIY XULOSALAR	83-84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	85-87

A N N O T A T S I Y A

Mazkur ishda shoir mahoratini namoyon qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi til vositalarining qay darajada qo'llanganligini tadqiq etishga harakat qilingan. Buning uchun Abdulla Oripov dostonlarining leksik-semantik xususiyatlarini, ularda qo'llanilgan ko'chimlarni lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qildik. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida dostonlardagi so'zlarning ma'noviy va shakliy munosabatlari, eskirgan leksemalarning ifoda imkoniyatlari, Abdulla Oripovning individual neologizm yaratish uslubi hamda paremalarning badiiy-stilistik xususiyatlari misollar orqali tahlil qilingan.

Abstract

In this work, an attempt has been made to examine the extent to which the poet's skillful, expressive language tools have been used. To do this, we analyzed the lexical and semantic features of Abdulla Aripov's epics, the linguopoetic features of the migrations used in them. the study also analyzes the semantic and formal relationships of words in epics, the possibilities of expression of lexemes, Abdulla Aripov's method of creating individual neologisms and the artistic and stylistic features of paremas.

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Dunyo tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lingvopoetika sohasining badiiy asar tahlilidagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati haqidagi ilk ilmiy-nazariy qarashlar ishlab chiqildi va ushbu sohaga oid muammolarni tadqiq etish jarayonida lingvopoetika, pragmalingvistika va lingvostilistika kabi yo'nalishlar bilan birga taraqqiy etdi. Amalga oshirilayotgan nazariy tadqiqotlarning amaliy aspektlarini yoritish zamonaviy tadqiqotlarning asosi sanaladi. Shu tufayli badiiy asar tilining lingvopoetik aspektlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy badiiy asarlar ijtimoiy o'zgarishlarning badiiy talqini sifatida nafaqat tilshunoslik, balki boshqa – psixologiya, antropologiya, kognitsiya, germenevtika va genderologiya kabi qator fan yo'nalishlari uchun ham beqiyos manbadir.

Jahon tilshunosligida til birliklarining poetik jihatlarini o'rganuvchi lingvopoetika sohasi ko'plab tilshunos olimlarining e'tiborini tortib kelgan. Mavzuni yoritish jarayonida jahon tilshunoslarining tadqiqotlari e'tiborga olindi, ularga munosabat bildirildi. Yirik poetik asarlar - dostonlarning lingvopoetik tomonlari tahlili tilshunoslikkina emas, balki unga yondosh sohalar uchun ham katta material berishi isbotlangan. Jahonning barcha xalqlarida xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarning yozma adabiyot va adabiy tilga ko'rsatgan ta'siri xalq tarixi va zamonaviy hayotini bog'lab turuvchi uzvlardan biridir. Shu ma'noda, badiiy dostonlar lingvopoetikasining o'ziga xos jihatlarini ochib berish, ularning lingvopoetik tahlilini amalga oshirish muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida ham turli fanlar bilan uzviy aloqa qator mutaxassislarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Natijada psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, germenevtika, lingvopoetika, fonopoetika singari yo'nalishlar ancha taraqqiy eta boshladi.

Xususan, lingvopoetika sohasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashga xizmat qiluvchi aspekt sifatida bo'y ko'rsatdi. Ushbu yo'nalishda ma'lum davr, Shuningdek, muayyan shaxslar ijodi misolida bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarda she'riy asarlar tilining uslubiy xususiyatlari, ma'lum figuralar, muammolar o'rtaga tashlandi va tashlanmoqda. Shu nuqtai nazardan dostonlarga xos badiiy xususiyatlar, xususan, mustaqillik davri bilan bog'liq dostonlarning ilk bor badiiylik asosida maxsus tadqiq etilishi hozirgi o'zbek lingvopoetikasining oldida turgan dolzarb muammolardan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida yaratilgan badiiy matnlarni o'rganish, lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil etish nafaqat ijodkorlar, balki umuman, o'zbek xalqining lisoniy mushohada va nutqiy ifoda jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Binobarin, «...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi» ham har qanday nazariy izlanishlar amaliy natijalar berishi lozimligini nazarda tutadi.¹

Mustaqillik yillarida adabiyotni mafkura vositasi sifatidagina emas, balki san'at hodisasi sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. Shu ma'noda alohida ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, ijodiy uslubiga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Haqiqatan ham, "...yozuvchilik – bu oddiy kasb emas, peshonaga yozilgan taqdir. Uning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir"². O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab she'riyatimiz yangilanish davriga kirdi. Yangilanish mazmundagina bo'lmay, ifoda tarzida ham to'la namoyon bo'ladi. Shu davrdan e'tiboran o'zbek she'riyati 30-yillardan boshlab urfga aylangan ritorikadan voz kechdi va obrazli tafakkur

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabrda nutqi. / "Xalq so'zi". – 2017yil, 23dekabr. №258

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 17-18.

tomon yuz burdi, ya'ni asliga qayta boshladi. Ushbu jarayonda Abdulla Oripov ijodi juda muhim bir halqani tashkil etadi. Zero, uning ijodida davr she'riyatida kuzatilgan asosiy tamoyillar o'zining aksini topgandir. Mavzuning o'rganilishi XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida muhim bir bosqich haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Abdulla Oripovning dostonlari tanlab olingan. Ba'zi o'rinlarda ular tomonidan yaratilgan yirik nazmiy voqeaband asarlar (xususan, she'riy dramalar) ga, Shuningdek, tarixan mustaqillik davriga to'g'ri kelmasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra yaqin bo'lgan asarlariga ham murojaat etilgan.

Tadqiqotning predmetini A. Oripov tomonidan yaratilgan dostonlar lingvopoetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Oripov dostonlarining lingvopoetikasini tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari:

A.Oripovning dostonlari badiiy tilida ro'y bergan o'zgarishlarni aniqlash va uning sabablarni ochib berish;

Abdulla Oripov dostonlarida qo'llanilgan lug'aviy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash;

Abdulla Oripov dostonlarida qo'llanilgan til birliklarining ma'noviy va mazmuniy jihatlari, uslubiy bo'yoqdorligi, qo'shimcha, yangi ma'nolar jilosini lingvopoetik planda tadqiq etish.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Abdulla Oripov dostonlarining badiiy jihatlari tizim sifatida o'rganildi;
- dostonlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning leksik-semantik, sintaktik-stilistik xosligi o'zaro qiyoslanib, ma'no imkoniyatlari asosida tahlil etildi hamda dostonlarda qo'llaniluvchi hikmatli so'zlar, maqol va matallar qiyoslab berildi;

- Abdulla Oripov dostonlarining badiiy jihatlari tizim sifatida o'rganildi;
- dostonlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning leksik-semantik, sintaktik-stilistik xosligi o'zaro qiyoslanib, ma'no imkoniyatlari asosida tahlil etildi hamda dostonlarda qo'llaniluvchi hikmatli so'zlar, maqol va matallar qiyoslab berildi;

- ijodkorlarning o'ziga xos poetik kashfiyotlari asosida qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarining asar estetik qimmatini belgilashdagi asosiy vazifalari tavsiflandi va tadqiqot ob'ekti bo'lgan ijodkorlarning individual uslubiy mahoratlari, mavzu va g'oya tizimida o'zbek xalqining o'ziga xos milliy tafakkur tarzi va badiiy-estetik ideali namoyon bo'lishining lingvistik asoslari ochib berildi;

- tilshunos ham, adabiyotshunos ham badiiy asar tahlilida so'z bilan ishlashi va uning badiiy estetik qimmatini, ifoda imkoniyatlari haqida o'ziga xos tarzda analitik fikr yuritishini hisobga olib yondashildi;

- metafora A.Oripov yaratgan aksariyat lirik asarlarning barcha sathlari (nutq, obraz, kompozitsiya)da namoyon bo'ladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida qator olimlar o'z tadqiqotlarida badiiy adabiyot tilini o'rganishning dolzarb ekanligini ta'kidlab, uni adabiy tilning shakllanib borishida juda muhim ekanligini e'tirof etadilar: "Badiiy adabiyot namunali adabiy normativ ifodaning qonuniyatlarini belgilovchi o'ziga xos jarayon, u shunday laboratoriyaki, unda umumxalq tilidagi nutq vositalari ijodiy ravishda qayta ishlanadi".¹

Badiiy adabiyot shunday xususiyatlarga egaligi sababli uni ham tilshunoslikning, ham adabiyotshunoslikning zarur o'rganish predmeti, deb qarash² mumkin. Badiiy asar tahlili tilning cheksiz imkoniyatlarini ochib beribgina qolmay, balki, badiiy asar estetik qimmatini belgilashda, ma'lum

¹Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М., 1959. – С.223.

²Виноградов В.В. Ўша асар.– С.4.

ijodkor ijodi va mahoratiga baho berishda, uning ijod uslubini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Badiiy asar tilini o'rganishning ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatli sanalgan aspektlaridan biri – lingvopoetik aspektda aynan shu jihatlar tadqiq etiladi.

O'zbek she'riyatining yirik vakili Abdulla Oripov ijodi 60-yillarning o'rtalaridan boshlab adabiyotshunoslik va tanqidning diqqat markazida turadi deyish mumkin. Shoir ijodi haqida M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, B.Nazarov, B.Akramov, N.Rahimjonov, O.Abdullaev, S.Meli, Y.Qosimov, N.Afoqova, M.Rahmonova, G.Ashurova, A.Hamdammov kabi adabiyotshunoslar, tilshunos R.Yusubova kabi ko'plab olimlarning maqola, risola va tadqiqotlari yaratilgan¹. Jumladan, N.Afoqovanning nomzodlik dissertatsiyasida Shoir ijodidagi badiiy san'atlar maxsus tadqiq etilgan bo'lib, mavzumizga bevosita aloqador fikrlar bildirilgan. M.Rahmonova Shoir asarlarining hayotiylik va badiiy butunlik masalasini, G.Ashurova Shoir she'riyatining obrazlar tizimi, g'oya va badiiy tasvir qirralarini, A.Xamdammov esa Shoir she'riyatidagi poetik tafakkur ko'lamining xalqona, milliy qirrasini ilmiy asosda o'rgangan. Biroq shunga qaramay, hozirga qadar Abdulla Oripov she'riyatida metaforaning o'rni, o'ziga xosligi kabi masalalar monografik tarzda maxsus o'rganilgan emas. Shu ma'noda uni ilmiy nuqtai nazardan maxsus

¹ Sharafiddinov O. Talant xalq mulki. – T.: Adabiyot va san'at, 1979, Sharafiddinov O. Inson qalbining manzaralari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1981. – 23 oktyabr; Qo'shjonov M. Kamalakdek serjilo / A.Oripov. Yillar armoni. – T.: Adabiyot va san'at, 1984; Qo'shjonov M. Onajonim she'riyat. – T.: O'qituvchi, 1984; Qo'shjonov M., Meli S. Abdulla Oripov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000; Meliev S. Lirik fojeli // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1991. 3-son. – B. 7-11; Afoqova N., G'aniev I. SHE'r – haqiqat darakchisi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1997. – 5 sentyabr; Qosimov Y. O'zbek she'riyatida poetik fikrning yangilanish jarayoni: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1994. – 23 b. Norboev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari: Filol. fanlari d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 1996. – 51 b. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1997. – 25 b; Raxmonova M.S. Abdulla Oripov she'riyatida badiiy butunlik: Filol.fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1998. – 23 b; Ashurova G.N. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat masalasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 23 b.; Xamdammov A.N. Abdulla Oripov she'riyatida xalqona poetik tafakkur muammosi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. –Toshkent, 2011. – 25 b. Yusubova R.N. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (Abdulla Oripov lirikasi misolida): Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2011. – 23 b. va boshqalar.

o'rganish va muhim nazariy umumlashmalar chiqarish mazkur ishning dolzarblik darajasini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi bo'yicha tadqiqotlar anchagina tarixiga ega bo'lsa-da, muayyan bir janrning muayyan bir ijtimoiy davr kesimidagi lingvopoetikasi borasida monografik tadqiqotlar kam. Ma'lumki, dostonlar 2 turga bo'linadi: xalq dostonlari va adabiy dostonlar. Salkam bir asr davomida olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda janrning leksik-semantik, badiiy-estetik va uslubiy xususiyatlari, badiiy tasvir vositalarining qo'llanish imkoniyatlari, asosan, xalq dostonlari badiiyati doirasida o'rganilgan. Adabiy dostonlar esa muayyan bir ijodkorning uslubiy mahorati, doston – poema yaratishning janr xususiyatlari, badiiy-kompozitsion belgilari nuqtai nazaridan, asosan, adabiyotshunoslik aspektida¹ tadqiq qilingan. Xususan, Abdulla Oripov dostonlarining lingvopoetikasi monografik planda maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi . Ishda olamdagi barcha narsalar uzluksiz rivojlanishda ekanligini, ularning ob'ektiv qonuniyatlarini e'tirof etuvchi dialektik falsafa metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, badiiy tahlil singari usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, izlanish xulosalari, badiiy san'atining hozirgi davri, balki tarixiy taraqqiyotida yuz bergan shakliy-uslubiy, mazmuniy va struktural tomonlardan yangilangani haqidagi bilimlarni to'ldirishga va kengaytirishga xizmat qiladi, jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligida

¹ ¹ Tulakov I. Poeticheskie traditsii i xarakter geroya v uzbekskoy sovetskoy poeme. AKD. Tashkent, 1981. – 22 s.; Mo'minov G'. Hozirgi o'zbek dostonchiligida uslubiy izlanishlar // O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. –Toshkent: Fan, 1983. –204 b.; Rahimjonov N. O'zbek sovet adabiyotida poema. – T.: Fan, 1986. –174 b.; Rahimjonov N. O'zbek sovet poemasining taraqqiyot jarayoni. Kitobda: Adabiy turlar va janrlar. T.: Fan, 1992. – B.171-292.; Rahimjonov N. Hozirgi o'zbek she'riyatining taraqqiyot tendensiyalari. Filol.fan.d-ri diss.... –T., 1989. –284 b.; Rahimjonov N. Badiiy asar biografiyasi. –T.: Fan, 2008. –262 b.; Rahimjonov N. Istiqloq va bugungi adabiyot. –T.: 2012. –328 b

muammo bo‘lib kelayotgan lingvopoetika sohasidagi ilmiy qarashlarni ma’lum darajada mazmunan to‘ldiradi. Muayyan davr dostonlari haqidagi qarashlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik nazariyasi, til va adabiy tanqid tarixi, hozirgi zamon o‘zbek tili va adabiy jarayon fanlarining, ayniqsa o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida lingvopoetika sohasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 87 sahifadan iborat.

I BOB. BADIY NUTQNING LINGVOPOETIK ASPEKTD O‘RGANILISHI

1.1. Lingvopoetikaning nazariy shakllanishi

Hayotdagi har bir fan jamiyat rivoji bilan bog‘liq holda taraqqiyotda ekan, tilshunoslik ham turli davrlarda rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan bizga ma‘lum. Til jamiyatda yashaydi va jamiyat bilan teng o‘shida, rivojlanishda bo‘ladi, zero, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til mavjud emas. Kishilik jamiyatida aloqa-aralashuvni ta‘minlovchi muhim vosita hisoblangan til haqidagi talqinlar bugungi kunda rivojlangan va murakkablashgan. Til hodisalarini tavsiflashga antroponimik yondashuv rivojlanishi munosabati bilan tilning fonetik qurilishini tadqiq etish faollashdi. She‘riyat qadimda dastlab eshitishga asoslanib yaratilgan, Shuning uchun badiiy asar tilining qabul qilinishi vizual emas, jonli intonatsion jarangi bilan eshinishi kerak. Bu esa axborotning estetik jihatini kuchaytiradi, xabar beruvchining hissiy munosabatini aks ettiradi, tinglovchiga shu hissiy ta‘sir yetkaziladi

Bir qator filologlar o‘z tadqiqotlarida tilni o‘rganishda lisoniy birliklarning naqadar muhim ekanligini e‘tirof etadilar: “Leksemalarning tovush strukturalari o‘zaro farqlanuvchanlik xususiyatiga egadir. Aks holda, inson taraqqiy etgan o‘z tafakkurining katta miqdordagi hosila birliklarini - tushunchalarni (ma‘nolarni) bir-biridan farqlay va xotirada saqlay olmas, ulardan kommunikatsiya jarayonida tez va o‘rinli foydalana olmagan bo‘lar edi”.¹ Badiiy nutq tadqiqida stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘ziga xos estetik vazifa bajaradi.

“Uslub, bu – insonning o‘zi degan qarashlar mavjud. Uslub deyilganda, bu yerda, umuman, mazkur sub‘ektga xos tajassumlanish usuli, nutqning xarakteri va shu kabilar bilan ajralib turuvchi o‘ziga xoslik tuShuniladi. Italiyalik olim fon Rumor esa, aksincha, uslubni, ijodkorning botiniy talablaridan kelib chiqib, qarshimizda o‘z obrazlari bilan namoyon bo‘lishi

¹Nematov H., Bozorov O. “Til va nutq”. T., 1993.-B.15.

tarzida belgilaydi va shu munosabat bilan badiiy gavdalantirish yoki ifodalash uslubi ustida o‘z mulohazalarini bildiradi”.¹

Badiiy adabiyot xuddi bir tilsim, siru sinoatlarga to‘la bir makon, ba’zan uning muayyan bir, har kim ham ilg‘ab ololmaydigan, nozik qirralarini beixtiyor kashf etish, taftish etish mumkin, biroq ushbu tilsim borgan sayin o‘z xaridori-ijodkorni o‘zining g‘aroyib domiga tortib borishi oqibatida badiiy so‘z xaridorining qiziqishi borgan sari ortib, avj pardasiga ko‘tariladi, ongi tiniqlashib, tafakkuri yorishgach, sehr, ohang, jarang, mung, hayrat, zavq, ishtiyoq va o‘tkir mayl kabi oniy va hissiy tuyg‘ular bir nuqtada kesishadi, natijada boshqalariga mutlaqo o‘xshamaydigan betakror san’at asari yaraladi. Ijodkor doimo o‘zining g‘aroyibotlarga to‘la sehrli olamida yashaydi. U so‘z bilan ishlaydi. U so‘zlarga turfa xil liboslar kiydiradi, u so‘zdan uning ichiga yashiringan asl ma’no-mohiyatni izlaydi. U so‘z orqali o‘z asariga jon bag‘ishlaydi. Ijodkorning qalami o‘tli, ongi esa yuksak aql va hislar tug‘yonida, doimo yaratish ishqida xalq dardi bilan yonishi kerak. Ana shundagina u yaratgan asar o‘quvchida katta qiziqish, ishtiyoq uyg‘otish bilan birga uning estetik didini tarbiyalabgina qolmay, balki umuminsoniy fazilatlarining shakllanishi va dunyoqarashining kengayishida muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy asar obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi badiiy tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita vazifasini bajarishi bilan, avvalo, lingvopoetikaning muammolarini hal etishda, asosan, yozuvchining so‘z qo‘llashdagi badiiy mahorati yetakchi lik qiladi. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, badiiy san’atlar Shoir badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish, uning xilma-xil san’atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko‘lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni jilolantirish san’atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan.

¹Gegel”Estetika. San’at va badiiy ijod falsafasi” I-tom. -T. 2012. -B.13.

Ana shu talab va bugungi ehtiyojlardan kelib chiqib, badiiy ijod namunasi bo‘lmish mustaqillik davri bilan bog‘liq bo‘lgan yozma dostonlarning o‘ziga xos lisoniy va badiiy jihatlarini lingvopoetik aspektda o‘rganishga jazm qildik. Badiiylik har qanday asarning bosh mezonini bo‘lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Badiiy adabiyot tili oddiy til emas, balki obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi tildir. “Badiiy tilda emotsionallik, serqatlamlik, obrazlilik, musiqiylik, serbo‘yoqlik, ixchamlik” bor. Badiiy tilda tilning serqirra imkoniyatlari yaratiladi. So‘z qo‘llashdagi bu xususiyat badiiy tilni san‘at darajasiga ko‘taradi.

“Yozuvchi mahorati, - deb yozadi I.Sulton, - aytilmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilishdan iboratdir”. Darhaqiqat, “yozuvchining dilida ajoyib tuyg‘ular mavj urib turgani bilan, ularni kitobxonning ko‘ngliga etkazib beradigan haroratli, jozibali so‘zlar topilmasa, yozuvchining tili chinakkam badiiy bo‘lmasa, har qanday ijodiy reja ham hayf bo‘lib ketadi”.

Badiiy asardagi hayot so‘z vositasida yaratilar ekan, badiiy poetik til, bevosita, real fikr va hissiyotning obrazli ifodasiga aylanadi. “Jajji” obraz – har qanday so‘z kontekstda hayotiyiligini, o‘zining xususiyatini, rangini, hidini, ohangini ko‘rsata oladi. Ijodkor, shoir yoki yozuvchi so‘zning leksik, grammatik, stilistik ma’no ko‘rinishlaridan eng zarur va kerakligini kontekstga muvofiq ishlatadi. Ya’ni tasvirlayotgan hayot, ya’ni epizod, obraz, xarakterning mohiyatini chuqur ochib beruvchi so‘zlarni tanlaydi. Tanlangan har qanday so‘z adabiy asarda, aynan, Abdulla Oripov dostonlarida ham, albatta, ma’lum yukni tashishi lozim bo‘ladi. Abdulla Oripov dostonlarida tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyligi va to‘laligini, uning ahamiyati va kuchini qahramonning his-tuyg‘ulari, kayfiyat va kechinmalarini o‘zida mujassam etishiga – shu yukni qanchalik ko‘targanligiga qarab belgilaymiz.

Badiiy mahoratning to‘rtta belgisi, ya’ni aytilmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet, so‘z va ibora o‘lchovlarning asosiysi bo‘lib, ular har

qanday badiiy poetik asarda, jumladan, Abdulla Oripov dostonlarida ham yaxlit, butun holda namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar, bevosita, biri birini yaratuvchanlik va ta’sirchanlik xususiyatlarini zo‘raytirishga, tabiiylikni yaratishga xizmat qiladi. Badiiy mahorat, bir tomondan – real hayotdagi yangilikni ko‘ra bilish va uni adabiyot vositalari ila tahlil qila bilish san’ati bo‘lsa, ikkinchi tomondan badiiy san’atning sirlarini, texnikasini, minglab hissiy - tasviriy vositalarni chuqur bilishga bog‘liqdir. Bu ikki tomon dialektik aloqada bo‘lsa, uzviy birlashgan holda tasvirlashga niyat qilingan qahramonlarning hayotini butun to‘laligi va aniq nuqtalari bilan ko‘ra bilishga xizmat qilsa, tasvir o‘quvchini hayajonga sola bilsa, ana shundagina hayotning katta haqiqati o‘zining tugal va go‘zal ifodasini topadi.

Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jaryondir. Yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asar tahlili ham tadqiqotchidan kuchli bilim va mahorat talab etadi. Shunday ekan, biz ham Abdulla Oripov dostonlari haqida fikr yuritir ekanmiz, badiiy nutqi o‘zbek tilshunosligi kabi o‘zbek adabiyotshunosligida ham bugungi kunda kam o‘rganilgan sohalardan hisoblanadi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda shu kunga qadar badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar¹ olib borilgan bo‘lsa-da, bu mavzu bugungi kunda ham o‘zining yangilik darajasini yo‘qotmagani holda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Antik zamondan to shu kunga qadar o‘tgan davr davomida badiiy adabiyotning til san’ati ekanligini ko‘plab tilshunos va adabiyotshunos olimlar e’tirof etib kelmoqdalar. Bunda har xil

¹ С.К.Огден, И.А.Ричардс. The meaning of meaning. New York, 1927.; Виноградов В.В. О теории\художественной речи. М.,1971; Новиков Л. А .Художественный текст и его анализ . М.,1988; Мирзаевэ И.К.Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дис. ...док.фил.наук.Т.1991.;Умуркулов Б.Лексические особенности современной узбекской поэтической речи.Дис....канд.фил.наук.Т.,1993.;Хамидов З.Лексико семантическое и лингвопоэтическое исследование языка « Лисан ат-тайр»Дис....канд.фил.наук.Т.,1982; Yo‘ldoshev M.M.Cho‘lponning badiiy til mahorati. Fil.fan.nomz.diss....avtoref.Т.,2000.; Normurodov R.U. Shukur Xolmirzaev asarlarining til xususiyatlari. Fil.fan.nomz.diss....avtoref.Т.,2000.; Solijonov.Y. XX asrning 80-90-yillar o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi.Fil.fan.dok.diss....avtoref.Т.,2002.; Muhammadjonova G.80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi.Diss....fil.fan.nomz.avtoref.Т., 2004 va boshqalar.

millatlarga tegishli muayyan tilning fikr ifodalashdagi imkoniyati to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Ijodkorning so‘z tanlay bilish, fikrni badiiy tafsillar yordamida obrazli ifodalash, umumiy til boyliklari va tasviriy vositalardan unumli foydalanish, ayni paytda o‘ziga xos badiiy nutq yarata olish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

Ishimizda filolog nuqtai nazaridan ahamiyatli sanalgan aynan shu jihatlarni lingvopoetik aspektda tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qilib olganmiz.

X.Doniyorov va S.Mirzaevlarning so‘z san‘atiga bag‘ishlangan asarida badiiy tilni lingvostilistik aspektda o‘rganishilishi kerak ekanligi ta’kidlanadi. Badiiy tilning evolyusion o‘zgarishlarini, grammatik kategoriyalar va so‘zlardagi leksik-semantik ma’no o‘zgarishlarini aniqlash maqsadida badiiy asar tili ustida olib borilgan kuzatishlar o‘rganishning lingvistik aspekti, deb atalib, undan “yozuvchi mahoratiga doir mulohazani talab qilib bo‘lmaydi”¹.

Stilistik aspekt, bevosita, “so‘z tanlash san‘ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, uning xalq jonli tili boyliklaridan hikmatli so‘zlar, xalq maqollari va iboralaridan, frazeologik birikmalar va ideomatik so‘zlardan, dialektizmlardan qanday foydalanishi, neologizmlarni qanday qo‘llashi, yangi so‘z va iboralar yasashi kabi masalalarni o‘zida mujassamlashtirib, yozuvchining mahorati va uning o‘ziga xos badiiy tili haqida o‘ziga xos tarzda hukm chiqarish imkonini beradi”²

“Badiiy til lingvopoetika sohasi uchun asosiy ob’ekt” vazifasini bajarar ekan³, filologik nuqtai nazardan o‘rganiladi.

Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov o‘z davrida badiiy asar tilini o‘rganishni mustaqil yo‘nalish sifatida ajratish zarur⁴ligini ta’kidlagan edi.

¹Doniyorov X. Mirzayev S. So‘z san‘ati. T.: O‘zadbiy nashr, 1962. –B. 173.

²O‘sha kitob. –B.174.

³Григорьев В.П. Поэтика слова. М., 1979. –Б.4.

⁴Виноградов В.В. Наука о языке худ. лит. и её задачи: Сб. Исследование по славянскому литературоведению и стилистики. М., 1960. –С.12.

Hozirgi kunda bunday tushunchalar qatoriga soʻz sanʼati tili, badiiy til, badiiy matn, idiolekt, idiostil, badiiy olam singari qator tushunchalar kiradi. Bizning tadqiqot mavzuumiz badiiy adabiyot tilining muhim shakllaridan biri, tilining tarixiyliigi, falsafiyliigi, rang-barangliigi, badiiyliigi, obrazlilik va taʼsirchanlik koʻlamining kengliigi jihatidan oʻziga xoslikka ega boʻlgan A. Oripov dstonlariga xos leksik-poetik ifoda vositalarining individual estetik qoʻllanish sistemasiga bagʻishlanadi.

“Poeziya tili oʻta kuchli, yangi tugʻilgan chaqaloq kabi begʻubor, qisqa va tushunarlidir¹. Shunga koʻra badiiy til tadqiqida poetik asarlar sermahsul manba hisoblanadi. Buni amerikalik tilshunoslar S.K.Ogden, I.A.Richards, V.O.Gumbold, rus olimlaridan V.L.Zvigensev, L.N.Shcherba, V.V.Vinogradov, L.A.Novikov, A.A. Potebnya, K.Shimkevich, V.P. Grigorev, A.I.Efimov, N.S.Gumilev, A.A.Lipgart, V.YA.Zadornova, oʻzbek tilshunoslari va adabiyotshunoslaridan I.K.Mirzaev, S.Karimov, N.Shukurov, A.Shomaqsudov, Q.Samadov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, N.Boboxoʻjaev, I.Qoʻchqortoev, X.Doniyorov, E.Qilichev, R.Qoʻngʻurov, B.Umurqulov, E.Begmatov, B.Yoʻldoshev, O.Bozorov, A.Mamajonov, M.Mirtojiev, I.Sulton, M.Qoʻshjonov, S.Mamajonov, O.SHharofiddinov, H.Boltaboev, A.Hayitmetov, Y.Ishoqov, I.Haqqulov, Y.Solijonov, H.Umirov, A.Hojiahmedov, N.Ibrohimov, H.Joʻraevning ilmiy izlanishlari misolida ham koʻrishimiz mumkin.² Mazkur tadqiqotlarda badiiylik ishning asosiy oʻrganish obʻekti boʻlib xizmat qiladi.

Poeziya tili proza tilidan lingvistik siqiqliigi, sayqallanganliigi, jarangdorliigi, musiqiyliigi va ohangdorliigi bilan farqlanadi. U qofiya, inversiya, leksik va obrazli tasviriy-taʼsiriy vositalar asosiga qurilgan sheʼrning poetik nutqi sifatida voqelanadi. Poeziya tili ijodkordan juda kuchli mahorat talab

¹В.И.Даль. Энциклопедический словарь юного филолога. Москва, “Педагогика”, 1984.-С.178.

² С.К.Огден, И.А.Ричардс. The meaning of meaning. New York, 1927.; Виноградов В.В. Стиль Пушкина. М.,1941.-С.483.; Реформатский А.А. Введение в языковедение.М., 1967.; Новиков Л.А.Семантика русского языка.М., 1982. Григорьева А.Д., Иванова Н.Н. Язык лирики XIX в. Пушкин. Некрасов. М.,1981.; Калашникова Г.Ф. Семасиология. Харьков-1985.-С.50; Jumaniyozov Y. Til va uslub.1973.-B.7.; Neʼmatov H. Bozorov O. Til va nutq.T.,1993.-B.15.

etadi. “Har bir insonda his etish qobiliyati me’yorida tarbiyalangandagina, u tilini butun bir go’zalliklari bilan his eta boshlaydi”, - deydi rus olimi L.V.Shcherba. Uning izdoshi hamda shogirdi V.V.Vinogradov jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligi fanlari kesishgan doirada o’ziga xos o’rin tutadi. Lozim fikrni obrazli, yuksak ta’sirli-ekspressiv holatda ifodalashda “so’z saylay bilish”¹ga alohida e’tibor kerak, so’z saylaganda ham, u botiniy jihatdan matndagi nozik ma’no ottenkalarining eng noyob qirralarini ham aks ettira oladigan hamda u qofiya, turoq, vazn talabiga mos kelishi va ta’sirli ohangdorlikka ega bo’lishi lozim. Bundan tashqari, she’riyat badiiy tafsillar, badiiy tasvir vositalarining original, ya’ni betakror va o’ziga xos talqinlarini talab etadi. Ijodkorning sintaktik, stilistik yo’l bilan o’ziga xos jarangdor va mazmundor badiiy nutq yarata olishi esa uning o’z uslubiga bog’liq.

Ba’zi asarlar yagona tarixiy shaxs hayoti, u yashagan, faoliyat ko’rsatgan zamin va makon haqida yozilganligi bilan takroriylikka ega bo’ladi. Ammo ana shu takroriy jihatlarning har bir ijodkordagi badiiy-tarixiy qamrov darajasi, badiiy tahlil va talqini, ular murojaat etgan janrlar, ularning imkoniyatlaridan foydalanish kabi jihatlari “har bir asarda betakrorlikni”, kengroq qilib aytganda, takroriylikdagi betakrorlikni keltirib chiqargan. Haqiqiy ijodkor hamma vaqt individuallikka, betakrorlikka intiladi.

Badiiy til vositalari, lug’aviy birliklar har bir ijodkor ijodiy jarayonida yangilanadi.

“Ijodkor xalq tilining noyob namunalarini olib, uni sayqallab, yana xalqqa taqdim etadi”². Shu yo’l bilan adabiy til xazinasini yangi so’zlar, yangi ma’nolar, tagma’nolar, nutqning yangicha ifoda usullari bilan muntazam ravishda boyib boradi. Bu esa badiiylikning o’ziga xos evolyusion taraqqiyot bosqichini tashkil etadi va uni yangi sifat bosqichiga ko’taradi.

¹Umrqulov B. Badiiy adabiyotda so’z. T.: Fan 1993. - B.30.

²Umurov H. Badiiy ijod asoslari. T.: O’zbekiston, 2001. - B.36.

Yuqoridagi fikr va qarashlarga tayangan holda soʻzning chin maʼno, mohiyatini his etib, uni oʻrinli qoʻllash natijasida yaratilgan original, obrazli badiiy nutq inson ruhiyatiga kuchli taʼsir etib, unda u yoki bu voqea, holatga nisbatan kuchli hissiyot uygʻotishga qodir. Ana shu hissiyot qudratini poeziyada koʻproq sezamiz. Chunki “sheʼr – bu hayot voqea-hodisalariga estetik munosabatdan hosil boʻluvchi va fikrlarni hayajonli ritmik nutq vositasida ifodalovchi lirik asar”¹boʻlib, undagi “soʻzni fikr va tuygʻu oʻraydigan qogʻoz deb qaramaslik kerak. Sheʼrda fikr va tuygʻu soʻz bilan uygʻunlashadi va kitobxon qalbiga ohang, vazn, qofiya, tovush takrorlari bilan kirib boradi”.²

Poeziyada fikr lugʻaviy vositalar, vazn, qofiya singari sheʼrning oʻlchov talablari yordamida siqiq holda ifodalanadi, ijodkor esa shu qisqa jumla, hatto bir soʻzda fikrning butun nozikligini toʻla-toʻkis ifodalashga harakat qiladi.

Falsafadagi dialektika qonuni tilshunoslikka, til amaliga, ayniqsa, sheʼriyatga ham aloqadordir. Chunki adabiyot, poeziya muayyan davrlarda oʻziga xos koʻrinishda oʻzini namoyon etadi. Ilmiy tadqiqot va izlanishlarda ular muayyan davr ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazaridan tahlil etilib, mazkur davrga xos lisoniy xususiyatlarni oʻzgarish-yangiliklari, mezoniy ifodalari tadqiq etiladi. Bunday ishlar badiiy asar tahlili va muayyan ijodkorning badiiy mahoratini aniqlashda, uni toʻgʻri baholashda yordam beradi.

Har qanday janrdagi badiiy asar toʻla maʼnoda nutqiy hodisa bilan bir qatorda til faktiga asoslangan boʻladi. Har qanday asar tilining oʻziga xosligi va betakrorligi yozuvchi mahorati bilan belgilanadi. Har qanday adabiyotning asosini til birligi tashkil qiladi. Badiiy asar kompozitsion va shakliy tuzilishini tashkil etuvchi komponentlar til vositasida oʻz ifodasini topadi. Badiiy asarning asosiy maqsadi, bosh gʻoyasi va tarbiyaviy, maʼnaviy-maʼrifiy, ilmiy va umuminsoniy mohiyati ham til orqali oʻz aksini topadi. Soʻz esa tilning eng

¹ Гумилёв Н.С. "Стихи, письма о русской Поэзии, М., 1990.-С.261.

² Озеров Л. Работа поэта. М., 1968.-С.168.

kichik va birlamchi elementi hisoblanadi. Ushbu jajji so‘z har qanday badiiy asarning bosh mezoni hisoblanadi.

Xususan, lingvopoetika jahon filologiyasi fani olamida tilshunoslik va adabiyotshunoslikni birlashtiruvchi omil sifatida o‘z shaklini topmoqda. Shunday ekan lingvopoetika o‘zi nima? Lingvopoetik tadqiqot qanday qonun va prinsiplarga asoslanib ish ko‘rishi kerak? Lingvopoetik tadqiqot uchun tilshunos olimning qarashlari muhimmi va yoki adabiyotshunosniki? Bu haqda bugungi kungacha V.P.Grigorev, L.N.IIqerba, V.V.Vinogradov, A.A.Lipgart, V.YA.Zadornova, I.K.Mirzaev, S.Karimov, A.Nurmonov, M.Yo‘ldoshev, G.Muhammadjonova, SH.To‘xtaxo‘jaeva, S.Umirova kabi tilshunoslarning o‘ziga xos fikr va mulohazalarini nazarda tutgan holda, ushbu sohaga doir ba’zi bir qarashlarimizni ifoda etamiz.

Agar lingvopoetikaning tadqiq ob’ekti har qanday janrdagi badiiy asar matni bo‘lsa, tom ma’nodagi asar tahlili bir butunlikni taqozo etar ekan, demak, ushbu tahlil tilshunos va adabiyotshunos olimning nuqtai nazarlarini bir nuqtada birlashtirishni talab etadi. Shunday ekan, tadqiqotchi lingvopoetik aspektda ish ko‘rar ekan, o‘zini men tilshunosman, Shuning uchun meni faqat til faktlari qiziqtiradi va yoki men adabiyotshunos olimman, men faqat adabiyot nazariyasiga asoslanib ish ko‘raman, deyishlari asossiz deb o‘ylaymiz. Chunki har ikki yo‘nalish sohibi ham badiiy matn ustida lingvopoetik tadqiqotni amalga oshirar ekan, avvalo, ushbu tahlillar asosini estetik qimmat tashkil qilishini unutmasligi kerak. Qizig‘i, tilshunos ham, adabiyotshunos ham badiiy asar tahlilida so‘z bilan ishlaydi va uning badiiy estetik qimmati, ifoda imkoniyatlari haqida o‘ziga xos tarzda analitik fikr yuritadi. So‘zning asl, ichki, yashirin semantik ma’nosi, uning ahamiyati, uning qadr-qimmati, ma’noviy darajasi, fikr bayonidagi muhim ahamiyati, o‘ziga xos qator, lisoniy va badiiy vazifalari ustida bosh qotiradi. Shunday ekan, tadqiqot ishida lingvopoetik tahlilning asosini bir butun yaxlit ifoda etuvchi atama, ya’ni “filologopoetik tahlil prinsipi” tushunchasini kiritishga qaror qildik.

Shu nuqtai nazardan dostonlar tiliga xos poetik xususiyatlar, xususan, mustaqillik davri bilan bog‘liq dostonlarning badiiylik asosida maxsus tadqiq etilishi hozirgi o‘zbek lingvopoetikasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Abdulla Oripov dostonlariga xos poetik xususiyatlar, badiiy matndagi shakl va ma’no munosabati, yangi paydo bo‘lgan poetik vositalarning qo‘llanilishi ushbu davr o‘zbek dostonchiligida o‘ziga xos tomonlari bilan farqlanishi kuzatiladi.

Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asardan o‘rin olgan g‘oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan.¹

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she’riy san’atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

She’riy san’atlarni mohirona qo‘llash, albatta, shoir ning badiiy tafakkur salohiyati, o‘z ona tilining cheksiz go‘zalliklaridan foydalanish iqtidori bilan bog‘liq.

”Lingvopoetika umumiylik kasb etib, barcha uslubda yozilgan asarlar tahlilida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi”², “Lingvopoetika badiiy asar mohiyatini to‘laqonli ochib berish imkoniyatiga egadir”³ degan fikrlar xulosalarimizda haq ekanligimizni dalillaydi.

¹lib.uzbender.ru/article.php?id=4597library.ziyonet.uz/ru/book/57314

²Ахманова О.С. К вопросу о слове в языке и речи//Доклады и сообщения филологического факультета.Вп.5.-М., 1984.-С.58., Задорнова В.Я. Восприятие и интерпритация художественного текста.- М., 1984.-С.с.109-119., Алексеев М.П. .Пушкин и мировая литература.-Л.,1987.С.с.110-111

³Липгарт А.А.,Задорнова В.Я. Лингвопoeтика. Слово в художественном тексте. М.,1999.Язык, сознание, коммуникация. Сборник статей.М.: МАКС Пресс, 2005.-Вып.29.ISBN 5-317-01330-5

Abdulla Oripov dostonlari lingvopoetikasi haqida fikr yuritir ekanmiz, bevosita O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida tilga bergan ta’rifini eslatib o‘tishni lozim topdik: ”Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning yuksak badiiy ifodasi va avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik badiiy tilda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi”¹. Jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday jarayon muayyan jamiyatning barcha sohalarida o‘ziga xos o‘zgarish yasashi tabiiydek, mustaqillik davrida yaratilgan dostonlar ham mana shunday ijobiy o‘zgarishlarga boy bo‘lib, o‘rganish uchun o‘ziga xos muhim va qimmatli manba hisoblanadi. Ba’zan tarixiy, ba’zan bugungi kun ruhi bilan sug‘orilgan, ijtimoiy hayot muammolarini o‘zida aks ettirgan, mustaqillik davrida yaratilgan dostonlar, o‘ylaymizki, o‘zbek filologiyasiga lingvopoetik hamda poetik nutq tahlili muammolarini hal qilishda ko‘plab ma’lumotlar beradi.

Ushbu jarayonda, albatta, badiiy matndagi shakl va mazmun, ekspressivlik va emotsionallikni ifodalovchi, insonlarning estetik dunyoqarashlari va ma’naviy-ruhiy olamiga ta’sir etuvchi badiiy tasviriy vositalar va til unsurlari tahliliga asosiy e’tibor qaratildi. Tahlil jarayonida badiiy san’at ifodasi bo‘lgan til birliklarining xosliklari, asosan, sub’ektiv mazmun ifodalovchi omillar asosida ko‘rsatib berildi.

1.2. Lingvopoetik tadqiqotning badiiy asar tahlilidagi o‘rni
Lingvopoetika – filologiyaning poetik tilni tadqiq etadigan sohasidir.² Jahon tilshunosligida shu kunga qadar badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha monografik planda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. O‘zbek tilshunosligida ham lingvopoetika yo‘nalishida qator ishlar yuzaga kelmoqda. Ulardan kelib chiqadigan asosiy to‘xtamga ko‘ra, lingvopoetik tadqiqotning asosiy maqsadi badiiy asarning estetik qimmatini va ta’sirchanlik kuchini belgilab berishdan

¹Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 17-18.

²Григорьев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука, 1979. – С.58

iboratdir. Lingvopoetika filologik ilmlar tizimida alohida o‘rin tutadi.¹ Shunday ekan, ushbu omilning o‘zigina bizdan obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi badiiy tilni har tomonlama o‘rganishni talab etadi. Bunda badiiy asar tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita vazifasini bajaradi. Lingvopoetikaning muammolarini hal etishda, asosan, ijodkorning so‘z qo‘llashdagi badiiy mahorati yetakchi lik qiladi. Yuqori nutq va til faoliyatining natijasi - badiiy asar, asosan ma’naviy, estetik manba, obrazli tasvir, tarbiyaviy g‘oya kabi muhim vazifalarni bajaradi. Bu jarayon bevosita ijodkorning uslubiy mahorati, badiiy nutq ifodalovchi poetik nutq va til hodisalari qonuniyatlarini bilish va ularni o‘rinli qo‘llash, to‘g‘ri idrok eta bilish, namunaviy qoidalarga nisbatan ijodiy yondashishida muhim omil hisoblanadi. Badiiy asar g‘oyaviy mazmunini yoritishda, voqelikni aniq bayon qilishda, til vositalarini qo‘llash mahoratida ijodkorning adabiy til qonun va me‘yorlaridan foydalanish uslubi namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar yoki badiiy matnni yuqorida qayd etilgan funksiyalari asosida, har tomonlama badiiy qimmatini ochib berish, leksik ma’no olmos qirralarini tahlil qilish, asar kompozitsiyasi va g‘oyasini ochib berish, ijodkor uslubiy mahoratini aniqlash, mazkur davr ijtimoiy ruhiyatini aks ettirish, muayyan davrda yaratilgan asarlar tili bilan qiyosiy ravishda tadqiq etish lingvopoetikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Keyingi yillarda lingvopoetika bo‘yicha yaratilgan ishlardan birining muallifi S.Umirova lingvopoetik tadqiqotlar olib borish usullari-metodlari bo‘yicha jahon va o‘zbek tildshunosligidagi qarashlarni sintez qilib quyidagi xulosaga keladi: “Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, poetika va estetika fanlari uchun g‘oyat muhim nazariy xulosalar berishga xizmat qiladigan badiiy matnning lingvistik tahlili kommunikativ-estetik vazifani bajaradigan individual til tizimini tadqiq etishga yo‘naltirilgan lingvostilistik tajriba, semantik-stilistik, qiyosiy-stilistik,

¹Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T: Fan, 2007. –B.7.

statistik-stilistik tahlil, kognitiv tahlil, badiiy usul lingvopoetikasi, lingvopoetik qiyoslash, lingvopoetik stratifikatsiya singari o‘z tahlil metodlariga ega.”

A.Hojiahmedov ta’rifi mufassalroq bo‘lib, unda ham funksional jihat asos qilib olingan: «Ma’naviy san’atlar asardagi g‘oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma’naviy qiyofalari, histuyg‘ularini ta’sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan».¹ U yoki bu Shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan badiiy san’atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalar muhim ekanligini e’tirof etish mumkin.

Badiiy nutqda badiiy san’atlar Shoir badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish, uning xilma-xil san’atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko‘lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni jilolantirish san’atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan. Badiiy san’atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi badiiy san’atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog‘liqligidir. Badiiy san’atlarni qo‘llashda me’yor masalasi ham muhimdir. Ya’ni badiiyatda haddan tashqari san’at qo‘llash maqbul bo‘lmaganidek, ularga e’tiborsizlik bilan qarab, asardagi g‘oyalarni, fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she’riy asar estetik qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz. Badiiy san’atlarning har biri muayyan g‘oyaviy-badiiy niyatga xizmat qiladi. Ijodkorlar qo‘llagan har qaysi badiiy san’at g‘oyani badiiy ifodalash, lirik va epik timsollarni yorqin gavdalantirish, asarga joziba, jilo, ta’sirchanlik bag‘ishlash vazifasini bajargan. Badiiy san’atning estetik qimmatini baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan farqlangan. Badiiy san’atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo‘lishi, ya’ni qo‘llanayotgan san’at hayot mantiqiga

¹Hojiahmedov A. Badiiy san’at mo’jizasi. – T: Fan, 2007. –B.7.

mos kelishi, unga zid bormasligi shart bo'lgan. Bundan tashqari badiiy san'atlar o'quvchilarning bilim darajasiga muvofiq bo'lishi zarur bo'lgan. "Ko'plab ma'lumotga ega bo'lgan kitobxongina ijodkor qo'llagan san'at mohiyatini anglab etishi hamda uning badiiy salohiyatidan hayratlanishi mumkin".¹

Muayyan davr dostonlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, dostonlarda qo'llangan har qaysi badiiy san'at hayotiy manzaralar vositasida ijobiy xislatlarni kamol toptirishga xizmat qilganini ko'ramiz. Ayni vaqtda ushbu san'atlar badiiy so'zning buyuk qudratini his etish, tilimizning beqiyos boyligi va go'zalligini teranroq anglab, vatanparvarlik, elsevarlik, millatparvarlik hamda insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash va estetik didini shakllantirish vazifasini bajargan. Bir baytning o'zida bir necha xil badiiy san'atning qo'llanishi kuzatiladi. Dostonlar tilida mohirlik bilan qo'llangan badiiy san'atlar Shoir ning badiiy tafakkur salohiyati, ona tilining cheksiz go'zalliklaridan foydalanish iqtidoridan darak beradi. Mazkur davr dostonlarida ma'naviy va lafziy san'at turlarini uchratamiz. Ma'naviy san'atlar doston g'oyasini yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qilgan bo'lsa, lafziy san'atlar asarning badiiy jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotimizda olimlarning muayyan davr she'riyatiga bergan tavsiflari va tahlillari bilan yaqindan tanishib chiqish orqali, mustaqillik davrida yaratilgan yozma dostonlarda o'ziga xos milliy mentalitetimizning yorqin ifodasi, ijtimoiy-tarixiy voqea, hodisalar va lavhalar talqinida inson ruhiyatidagi erkinlik tuyg'usining aks etishi, tarixiy leksemalardagi ta'sirchanlikning, individullikning, estetik zavqning ustunligi, tarixiy obrazlar bilan birga ramziy obrazlar, ramziy timsollar, umuman, ramziylikning yuqoriligi kabi xususiyatlar tahlil jarayonida oydinlashdi.

¹Madayev O.So'z sehri.T.,Fan. -1981.-B.3.

Abdulla Oripov dostonlari dramatik ko‘rinishda ko‘pincha dialogik nutqqa asoslangan, ba‘zan esa monologik nutqqa asoslangan bo‘lib, doston qahramonidan tashqari boshqa (ramziy) siymolarni ko‘rishimiz yoki qalban his qilishimiz mumkin. Bunda liro-epik qahramon o‘zining ichki ruhiy kechinmalari bilan, qalban yakka o‘zi qolib, o‘z qilmishlariga, kamchiliklariga iqror bo‘ladi, haqiqatni tan oladi, vijdonan qiynaladi, borliq, tiriklik haqida falsafiy mushohada yuritadi, mantiqan fikrlaydi. Uning nutqi o‘z o‘ziga murojaat qiluvchi, so‘zlovchi ichki monologik nutqi bilan xarakterlanadi.

Abdulla Oripov dostonlari o‘zining xalqchilligi, voqea-hodisalarning xaqqoniy ta’svirlanishi, tabiiyligi, milliy qadriyatlarga bo‘lgan yangicha munosabatlarning tarkib topishi bilan farqlanadi. Bunday holatlarni dostonlardagi tarixiy davr, tabiat, e’tiqod va milliylikni ifodolovchi leksemalarning ko‘p qo‘llanishi, tarixiy (istorizm, arxaizm) so‘zlarning turli xil ma’nolarda keng aks etishi, mumtoz she’riyatimiz san’atlariga ko‘plab murojaat qilinishidan anglash mumkin.

Abdulla Oripov dostonlari o‘zida muayyan tarixiy davrlarda mustaqillik uchun pinhona va oshkora kurash, ziddiyatli tuyg‘ular silsilasini, boy madaniy-tarixiy merosimizni sog‘inish va unga intilish, o‘zlikni anglash, milliy iftixor hamda g‘urur tuyg‘usini to‘la namoyon etadi. Shuning bilan birga mustaqillik davri nafaqat insonlar, balki ijodkorlarning ruhiyati, ichki ruhiy kechinmalari, yangilanishlar bilan bog‘liq orzu-armonlarini o‘zida mujassamlashtirdi va dostonlarda qo‘llanilgan har bir satr, har bir so‘z, har bir element, uning ma’nosida musiqiylik va ohangdorlik vositasida muhabbat, vatanni ardoqlash va sevish, milliy an’analarga sodiqlik, insoniylik, ozodlik, erk, ruhiy tozarish kabi masalalar goh ramziy, goh shundayligicha bor bo‘yi-basti bilan namoyon bo‘ldi.

Bob bo'yicha qisqa xulosalar

1. Tilshunoslikda badiiy asar tilini o'rganish bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlarni kuzatishdan kelib chiqadiki, lingvopoetik tadqiqotning asosiy maqsadi badiiy asarning estetik qimmatini va ta'sirchanlik kuchini belgilab berishdir.

2. Badiiy asar tilning cheksiz imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi eng muhim vosita vazifasini bajaradi.

3. Til tinglovchiga ekspressiv-emotsional tarzda ta'sir etuvchi juda muhim va qudratli vositadir. Tilning estetik vazifasi lingvopoetikaning o'rganish ob'ektidir.

4. Badiiy nutq tadqiqida stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos estetik vazifani bajaradi. Badiiylik har qanday asarning bosh mezoni bo'lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. Badiiy adabiyot tili obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi tildir.

5. Falsafadagi dialektika qonuni tilshunoslikka, til amaliga, ayniqsa, she'riyatga ham aloqadordir. Chunki adabiyot, poeziya muayyan davrlarda o'ziga xos ko'rinishda o'zini namoyon etadi. Bunday badiiy asarlar tahlili va muayyan ijodkorning badiiy mahoratini aniqlashda hamda til taraqqiyotini kuzatishda yordam beradi.

6. Abdulla Oripov dostonlari o'ziga xos poetik xususiyatlar, badiiy matndagi shakl va ma'no munosabati, poetik vositalarning qo'llanilishi bilan farqlanadi. Shunday ekan, mustaqillik davrida yaratilgan dostonlar badiiy tiliga xos bo'lgan uslubiy figuralar yoki badiiy san'atlar masalasi bugungi kunda lingvopoetika sohasining dolzarb muammolaridandir.

II BOB. ABDULLA ORIPOV DOSTONLARINING LEKSIK- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1. Lingvopoetik tahlilda so‘zlarning ma’noviy va shakliy munosabatlari

Antonim. Antonim grekcha **anti-“zid”**, **onoma-“nom”** demakdir. O‘zaro zid ma’noli so‘z, ibora va qo‘shimcha antonim deyiladi.¹ Badiiy asar tilidagi sinonim, antonim, omonim, ko‘p ma’noli so‘zlar kabi leksik birliklar ijodkorning badiiy - estetik maqsadini yuzaga chiqarishda qulay va sermahsul vosita hisoblanadi. “Antonimlar badiiy asar tilida muhim funksiyani o‘taydi: tasvir ob’ektini ichki ziddiyati bilan ochishga, voqea-hodisani bo‘rttirib va yorqin qilib ifodalashga xizmat qiladi”.²

“Tazod san’ati zid ma’noli so‘zlar asosida yaratilgan kuchli emotsional-ekspressiv va uslubiy vositadir”.³ Boshqacha qilib aytganda, antonimlar tasvirning aniq, ravshan chiqishida, tasvir etilayotgan holat, narsa, voqelikning farqli tomonlarini to‘la va obrazli aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Poeziya tilida bunday zid ma’noli so‘zlardan foydalanish kuchli hissiyotni ifodalashda juda qo‘l keladi. Chunki har qanday mazmunan qarama-qarshi ko‘ringan so‘zlar ham tazod singari zid va qarama-qarshi ma’no munosabatini ifodalayvermaydi.

Tazod badiiy ifoda unsurlaridan biri sifatida bevosita voqelikni ichki ziddiyat bilan ochishga xizmat qiluvchi vosita vazifasini o‘taydi va dostonda aks etayotgan obraz, voqelik yoki hodisalarning ta’sirchanligini, badiiy, estetik qimmatini oshirishga xizmat qiladi:

Ovrupaning nayrangiga laqqa uchdingu

*Sohibqiron Temuringdan yuzni o‘girding*⁴

¹ B.Mengliev, O‘.Xoliyorov.O‘zbek tilidan universal qo‘llanma.Toshkent, “Fan”, 2018.-B 75

²Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari.T., 2001.-B.192.

³To‘lanova N. Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy san’atlarning lisoniy-uslubiy tahlili: Filol.fanlari nomzodi...dis. avtoref. – Toshkent, 2008.-B.13.

⁴Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.389.

Ushbu ifodada mazmunan qarama-qarshi *uchmoq* va *yuz o'girmoq* so'zlarining o'zaro zidlanuvini kuzatish mumkin. Bu ikki mazmuniy birlik va mazmuniy birikma o'rtasidagi zidlik munosabati harakat ma'nosida yuzaga keladi. Bunda "uchmoq" so'zining yaqinlashish va "yuz o'girmoq" birikmasining uzoqlashish kabi differensial yashirin ma'nolari o'zaro ziddiyatning yuzaga chiqishiga sabab bo'lyapti.

Urushlarning o'z dahshatli nizomlari bor,

G'olib askar yuragida jo'shadir g'urur.

G'animini mag'lub holda ko'rar ekan u,

Xayoliga nima kelsa – Shuni qilgaydir. ¹

Ushbu ifodada ham poetik nutq hodisalaridan antitezani kuzatish mumkin. Bu yerdagi, "g'olib" va "mag'lub", qarama-qarshi ma'noli mazmuniy birliklari, ushbu matnda o'zaro zidlikni ifodalaydi. Ya'ni "g'olib" mazmuniy birligining enggan, g'alaba qozongan, "mag'lub" mazmuniy birligining esa engilgan, mag'lub bo'lgan kabi differensial yashirin yoki ichki ajratuvchi semalari namoyon bo'ladi.

Siz ulug'vor bir muhitda yashaysiz, ammo

O'zingizni eplolmaysiz.

Parokandasiz²

Ushbu ifodada ham antiteza hodisasini kuzatishimiz mumkin. Bu yerda *ulug'vor - parokanda* mazmuniy birliklari mazmunan antonimlikni hosil qilyapti. Shoir *ulug'vor* va *parokanda* so'zlarini o'zaro zidlar ekan, ushbu so'zlarning muayyan ichki ma'nolariga ishora qilgan holda, ko'zda tutilgan shaxslarning noshudligini, shohona bir sharoitda yashashiga qaramay, hattoki, o'zi o'zini eplay olmasligi, qo'ldan biron bir durustroq ish kelmasligini aniq ko'rsatib berish bilan birga anglashilayotgan personaj xarakterining ichki xususiyatlarini bor kamchiliklari bilan ochib berishga intiladi. Bu o'rinda tazod

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.315.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.411.

poetik san'ati personaj nutqida qo'llangan bo'lib, asar qahramonining fikrini aniqroq, ravshanroq yoritib berishga xizmat qiladi.

*Fahm aylagil, muzaffaru mag'lub podishoh,
Mangulikning ko'zgusida nechog' kamtarmiz¹*

YUqoridagi misralar fikrimizga aniqlik kiritadi. Bu yerda asar qahramonining, garchi necha-necha janglarda g'oliblikni qo'lga kiritishiga qaramay, "mangulik ko'zgusi" ya'ni "hayot"da (bu dunyoda, haqiqat, buyuk ruh- YAratganning oldida) barcha narsalar o'tkinchi ekani, ushbu masalada insonning, u kim bo'lishidan qat'iy nazar, tamoman ojiz (kamtarmiz) ekanligi haqidagi mushohadalarini o'quvchiga to'la etkazib berishda muhim vazifani bajaradi.

*Samarqandu Buxoro deb dunyoni oldim,
Bir xol uchun siz ularni hadya etmishsiz,
Shunchalikmi?²*

Ifodadagi *oldim* harakatni ifodalovchi so'zi *hadya etmishsiz* harakatni bildiruvchi so'z birikmasi bilan antonimlik hosil qilib, anglashilayotgan voqelikdagi asar qahramoni nutqining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shoir *olmoq* so'zining "*ega bo'lmoq*", "*erishmoq*" *hadya etmoq* birligining "*berib yubormoq*" kabi semalariga asosiy e'tiborni qaratadi va antiteza hodisasi orqali personaj fikridagi asosiy g'oyani aniqlashtiradi.

*Istaydiki, biz ularga qaram, qul bo'lsak.
Istaydiki, tobe bo'lsa ahli musulmon.
Menga fag'fur mamlakatin taxti kerakmas.
Lekin mazlum elatlarni ozod eturman.³*

Ushbu misralardagi qaram, qul, tobe kabi sinonim so'zlarni ketma-ket o'rinli qo'llar ekan, ma'noni kuchaytirish, umumlashtirish maqsadida ularni "*mazlum elatlar*" birikmasi orqali jamlab, unga nisbatan "*ozod*" so'zi

¹Ўша асар.-Б.436.

²Абдулла Орипов.Ўша китоб.-Б.451.

³Абдулла Орипов. Ўша манба.-Б.459.

qarama-qarshi qo'yilyapti. Bu yerda *qaram bo'lmoq*, *qul bo'lmoq*, *tobe bo'lmoq* (sifat + fe'l) so'zlari *ozod etmoq* (sifat + fe'l) fe'li bilan zidlov hosil qilib, qahramonning ezgu niyatidan darak beradi, maqsadini aniqlaydi.

Zindonlarda bandi yotganlar

Bugundanoq avf etilsin,

*Ozod etilsin.*¹

Ushbu ifodada “*bandi*” va “*ozod*” mazmuniy birliklari o‘zaro zidlanib, *bandi* so‘zining qul, tutqun, boshi bog‘liq, asir, ixtiyorsiz, erksiz, *ozod* so‘zining hur, erkin, mustaqil, ixtiyori o‘zida, boshi ochiq kabi ichki ma‘nolari (integral semalari) ning yuzaga chiqishini aytib o‘tishimiz mumkin. Ijodkor “*bandi*” so‘zi orqali asir, “*ozod*” so‘zini qo‘llash bilan esa hur asosiy semasini yuzaga chiqarib, tazod san‘atini yaratadi.

U suyukli nabiramdir. Valiahdimdir.

Alloh menga qahr hissin qancha ko‘p bersa,

*YUragimga o‘shanchalik mehr ham solmish.*²

Doston matnida antonimlik hosil qilgan “*qahr*” va “*mehr*” mazmuniy birliklari asar badiiy qimmatini va obraz ta‘sirchanligini oshirib, muayyan obrazning ichki ziddiyatini, sifatini aniqlashga xizmat qiladi. “*Qahr*” va “*mehr*” mazmuniy birliklari asl, ya‘ni o‘z ma‘nosida qo‘llanishiga qaramay, doston qahramoni, (ya‘ni Amir Temur) ning ijobiy tomonlari uning salbiy tomonlaridan ko‘ra ustunroq ekanligini yorqinroq, aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Bir tomchi qon ko‘zlariga seldek ko‘ringan

G‘animlarning boshlariga achingan qovchin,

Ne ish bilan mashg‘uldursen?

*Tilagingni ayt?*³

Ushbu ifodaning har bir satri juda kuchli ma‘noga ega. Misraning birinchi satridagi antiteza, ikkinchi satrda qo‘llanilgan “*qovchin*” etnonimi va so‘nggi

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.339..

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.459..

³Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.467..

satrlardagi so‘roqlar, ifodaning estetik qimmatida muhim ahamiyatga ega. Antiteza “tomchi”ning *juda oz, qatra* va “sel” so‘zining, *keragidan oshiqcha, mo‘l- ko‘l, juda ko‘p* kabi semalari orqali yuzaga kelgan. Shu tariqa tazod san’ati misra ta’sirchanligini kuchaytirishga, bo‘rttirishga xizmat qilyapti. Bu yerda yana ushbu so‘zlardagi miqdor uzvlari ham ko‘zga tashlanadi. Ifodada qo‘llanilgan uslubiy vositalar doston qahramonining fikrini o‘quvchiga to‘laligicha etkazib berishga xizmat qiladi.

Inshoolloh, yuvgaydirman, dog‘larim bo‘lsa...

Men g‘olibman!

Ayni chog‘da mag‘lubdirman ham!¹

Ifodadagi “g‘olib”, “mag‘lub” mazmuniy birliklari (sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlar) zidlov hosil qilib, asar qahramonining (Amir Temur) mag‘lublikni g‘oliblikdan ustun qo‘yayotgani, ya’ni personaj ichki ziddiyatlarining haqiqat uchun kurashayotganini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Ifodada ushbu so‘zlarning engmoq va engilmoq kabi ma’nolari ko‘zda tutilgan bo‘lib, Amir Temurning iqrorini ifodalayapti.

Qabulimdan seni bir vaqt haydagan edim,

Ma‘zur tutgin, xayolimni band etgandi jang.

Endi senga, xush kelibsan, marhabo deyman.²

Zidlantirishning eng xarakterli ko‘rinishlaridan biri bu matn zamiridagi tazoddir. Boshqacha qilib aytganda, antonimlarning eng xarakterli ko‘rinishlaridan biri bu kontekstual antonimlardir.³ Ular matnda qo‘llanish jarayonida, ya’ni kontekstda sodir bo‘ladi. Kontekstual antonimning namoyon bo‘lishi zidlash munosabatini ifodalash bilan birga badiiy estetik ahamiyat kasb etadi. Bu yerda ikki qarama-qarshi fikr moslashtirilib “haydamoq”, “xush kelmoq” so‘zlarining muayyan *quvmoq - kutib olmoq* harakat ma’nolari

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.566.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.556.

³Шанский Н.М. Современный русский язык.Часть 1.Москва-2081.-С.28.; Keldiyorova G. S.O‘zbek badiiy nutqida antiteza.Filol.fanlari nomzodi...dis.avtoref. – T 2000. –B.10.

namoyon bo'lishi bilan asar qahramonining ruhiy olami manzarasi, his-tuyg'ulari, iqrorini ifodalaydi va Amir Temurning o'z aybini tan olganligiga ishora qiladi.

Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq,

CHo'ng temirga urilingu chilparchin bo'lding.¹

Ushbu ifodada sifat so'z turkumi antonimlariga duch kelamiz. Bu yerda “qudratli” so'zining *engilmas*, “chilparchin” so'zining *engilgan*, *kuchsiz* semalari namoyon bo'lib, doston tilida muhim vazifani o'taydi va qahramonning o'ziga xos xususiyatlarini ichki imkoniyatlari bilan ochishga, zidlov orqali anglashilayotgan obrazning belgi va sifatini aniqlashga xizmat qiladi.

Sinonim. Sinonim grekcha **synonym** so'zidan olingan bo'lib, **syn** “bir” va **onoma** “nom” demakdir. Shakli har xil, bir tushunchani bildiruvchi til birligi sinonim deyiladi.² Badiiy asarlar tadqiqi jarayonida, ayniqsa, linvopoetik muammolarni hal etishda adabiy til birliklari, xususan, sinonimlar o'ziga xos o'rinni egallaydi. O'zbek adabiy tili ham boshqa tillar singari o'zining rang-barang sinonimik qatlamiga ega. Ushbu sinonimik qatlam o'zbek milliy badiiy tilining boy ifoda imkoniyatlarini namoyon etib, badiiy leksik qatlam salmog'ini oshirish uchun xizmat qiladi. “Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qator deyiladi”. Sinonimlar bir xil ma'noga ega bo'lishidan tashqari, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. So'zlovchi yoki ijodkor o'z fikrini maqsadga muvofiq ifodalash uchun sinonimlarning ana shu xususiyatlarini yaxshilab bilib olishi zarur bo'ladi. Badiiy matn doirasidagi sinonimlarni to'g'ri ajrata olish san'atini yaxshi egallash, ulardan to'g'ri foydalanish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida ular badiiy asar yoki tilidagi o'z fikr va

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.439.

²Mengliyev B, Holiyorov O'.O'zbek tilidan universal qo'llanma.T, “Fan”, 2018.-B 71

g‘oyalarining eng nozik holatlarini, o‘z nutqlarining hamma ma‘no jilolarini tushunarli va ravshan, ravon va jozibador, shirali va ta‘sirchan qilib ifodalash sharafiga muyassar bo‘ladilar”.¹

Biz ushbu ishimizda ko‘proq kontekstual sinonimlar haqida fikr yuritishni lozim deb topdik. Badiiy asarlar kabi yozma dostonlar yaratilishi va badiiy qimmatini aniqlashda sinonimlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular stilistik figura sifatida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

1.Ma‘no kuchaytirish, umumlashtirish, jamlash maqsadida ifodalanayotgan fikr, xususiyat, belgining darajalanish holatini aks ettirishda, qo‘shimcha ma‘no ifodalashda sinonimlar qatoridan foydalaniladi.

2. Fikrning nutqdagi o‘xshash yoki yaqin tafsilotlarini xilma-xil formalarda ifodalash uchun ikki yoki undan ortiq sinonimlar ishlatilib, bunda sinonimlar turli ko‘rinishlarda, masalan, asos sinonimlar shaklida, sodda yasama, qo‘shma so‘zlar shaklida parallel ishlatiladigan ekvivalent sinonimlar, birikma holidagi sinonimlar (tashrif buyurmoq, qadam ranjida qilmoq) va nihoyat, evfemizm so‘z yoki so‘zlar birikmasi orqali ifodalanadigan sinonimlar shaklida bo‘ladi. Badiiy asarlarda ushbu sinonimlar ta‘sirli badiiy nutq yaratishning eng sermahsul vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Sinonimlar nutqni, aynan biz fikr yuritayotgan Abdulla Oripov dostonlari tilining ta‘sirchanligini oshirishda hamda badiiy uslubning rangdor bo‘lishini ta‘minlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Fikrimizni dalillar orqali ifodalashga harakat qilamiz va Abdulla Oripov dostonlaridan keltirilgan qator misollar doirasida ko‘rib chiqamiz.

Abdulla Oripov yaratgan dostonlarda qo‘llanilgan salbiy xususiyatlarni ifodalovchi sinonimlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligini e‘tirof etish mumkin. Bunday salbiy xaraktyerdagi, mazmunan bir-biriga yaqin so‘zlar yordamida, ijodkor dostonning asosiy g‘oyasi, mazmun-mohiyatini, shaxs yoki obraz xarakteridagi kamchiliklar, salbiy xususiyatlarni ochib berish, voqea va

¹Qilichev E.Badiiy tasvirning leksik vositalari.T.,1982.-B. 16.

hodisalarni ro‘yi-rost aks ettirish orqali yoritib berishga erishadi. Ushbu holatni Abdulla Oripovning “Ranjkom” dostonida qo‘llangan ichki mazmuniga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan ma’nodosh so‘zlar asosida izohlamoqchimiz.

Tuhmat, ig‘vo, chaquv,.. hasad-bular bor gap-ku.

El ichida vaqt-bemahal qo‘zg‘ang ur-surlar.

Surbet bo‘ling, surbet bo‘ling. Bizning shior –shu.

O‘z-o‘zidan kela berar qolgan unsurlar.¹

Ifodadagi *tuhmat, ig‘vo, chaquv* leksemalari kontekstda sinonimlar qatorini tashkil qilyapti. Ushbu sinonimlarni “*birovga yomonlikni ravo ko‘rish*” semasi asosida birlashtirish mumkin bo‘ladi. Bu yerda dominant so‘z qilib *ig‘vo* leksemasini olamiz. Hasadgo‘y odamga chaqimchilik, *ig‘vogarlik*, *tuhmat* qilish kabi qator salbiy xislatlar xosdir.

Yana ushbu ifodada takroran qo‘llangan “*surbet bo‘ling*” birikmasidagi *surbet* so‘zining ham salbiy xususiyat ifodalashini hisobga olgan holda yuqorida qayd etilgan sinonimik qatorga uyg‘unlashuvi orqali tasvirning to‘laqonli chiqishiga erishilgan. Misralarda keltirilgan juft so‘zlarham salbiy xususiyat belgisisifatida mavjud muhitni qabariq holda ifodalab, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bilib qo‘ying, men dahriyman , xudosizman ha,

Bergan menga u na boylik va na martaba,

Xulosam shul: biz kabilar unga keraksiz²

Satirik xaraktyerdagi ushbu ifodada ham *dahriyman, xudosizman* kabi salbiy buyoqli sinonimlarni uchratamiz. Bunda *dahriy, xudosiz* leksemalarini “*e’tiqodsiz*”, “*ishonchsiz*” kabi ma’nolari orqali birlashtirish mumkin bo‘ladi.

Ustoz bo‘lgay bizga faqat moddiy shu turmush

Oson gapmi, na sonda, na sanoqda bormiz.

Bizga nasib aylamadi durustroq yumush,

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.351.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.359.

*Omad bizni chetlab o‘tdi, tashlandiq, xormiz.*¹

Bu o‘rindatashlandiq, xor leksemalarini kontekstual sinonimlar(kvazisinonimlar) deb qarash mumkin bo‘ladi. Chunki ifodada qo‘llangan *tashlandiq* leksemasi *xor* leksemasini taqazo etadi. Bunda sinonimlarning ma’nolaridagi ketma-ketlik, izchillikka rioya qilinadi va yana oddiy hayot falsafasini, ya’ni tashlandiq, keraksiz narsa yoki kimsaning keyini xorlik, zorlik ekanini izohlash mumkin. Bunda “*xor*” leksemasini dominant so‘z qilib olish mumkin.

So‘zdan so‘zning farqini to‘g‘ri anglagan ijodkorlarning, sinonimlarning har bir o‘ziga xos ma’no qirrasini, tasviriylilik ko‘lami va ta’sir darajasini aniq ifodalashga intilishlari natijasida tadqiq etilayotgan davrimiz dostonchiligi badiiyati go‘zal tasviriy namunalar bilan boyidi. Ayniqsa, bu davr uchun kontekstual yoki kvazisinonim larning o‘ziga xos ifodasi xarakterlidir.

Omonimlar. Shakli bir xil, ma’nosi har xil so‘zlar — omonimlar (shakldosh so‘zlar) deb ataladi. Omonim grekcha so‘z bo‘lib, bir xil nom degan ma’noni bildiradi. Omonimlar bilan ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zaro farqlashda quyidagi xususiyatga e’tibor qaratish lozim: ko‘p ma’nolilikda bir so‘z bir necha ma’nolarni bildiradi va bu ma’nolar bosh ma’noga qaysidir jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Omonim so‘zlarda esa ma’nolar o‘rtasida hech qanday aloqa bo‘lmaydi, ularning har qaysisi alohida-alohida so‘zlardir.² Omonim so‘zlar ma’nosini tuShunish esa kitobxon dunyoqarashining kengligi, fikrlar teranligiga asoslanadi. Omonim so‘zlar, asosan xalq og‘zaki ijodida, ayniqsa, askiyada so‘z o‘yini va qochiriq vositasi sifatida keng qo‘llanilib kelgan.

Badiiy asarlarda uchraydigan tajnis san’ati yoki poetik omonimiya hodisasi nutq ta’sirchanligini oshirishga, uni ixchamlashtirishga xizmat qiladi.³

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.364.

²Muhitdinova H. Va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.,2004.-B.49.

³<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tajnis>

Poetik asarlar doirasida tajnisning yuzaga chiqishida omonimlar o'ziga xos ahamiyatga ega. Bundan tashqari, omonim so'zlarni qofiyadosh qilib qo'llash asosida o'zbek adabiyotida tuyuq janri ham paydo bo'lgan. Tajnis she'riy san'atiga asoslangan tuyuqlarning o'ziga xos go'zal namunalarini yarata olgan namoyondalarimizdan Lutfiy, Navoiy, Boburlarni ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, o'zbek va boshqa turkiy xalqlar mumtoz poeziyasida keng tarqalgan tuyuq janri aruzning "ramali musaddasi maqsur" vaznida yaratilib, a – a – b – a tarzida qofiyalanadi.

Bundan tashqari, hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham poetik omonimiya hodisasi (tajnis) ning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin. Ishimizda mustaqillik davrida yozilgan dostonlarda omonim va o'zakdosh so'zlardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritimiz. Maqsadimiz, Abdulla Oripov dostonlarida uchraydigan tajnis badiiy san'at turi va uni yuzaga chiqaruvchi omillar, ya'ni omonim va o'zakdosh so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil etishdir.

Quyidagi poetik ifodada ham shunga o'xshash xususiyatlar kuzatiladi:

Biz ma'naviy tashkilotmiz – "Ranjkom" miz, ya'ni

O'zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.

Bab – barobar "siyla" gaymiz barcha – barchani,

Duch kelganga qadaladi o'tkir nishimiz.¹

Ushbu she'riy parchaning ifoda imkoniyatlarini tahlil qilishda birlamchi e'tiborimizni "ranjkom", "ranjitmoqlik" kabi leksemalarning asosi, ya'ni "ranj"ga qaratsak, ushbu leksema

1. *f. t. ko'ngilga etgan ozor, alam.*
2. *esk. mehnat, mashaqqat² ma'nolarini anglatadi.*

"Ranjitmoq" ranjimoq *fe'l. ort. n.* Birovning ko'nglini ranjitmoq³.

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001. -B.351.

²O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1981. -B.614.

³O'zbek tilining izohli lug'ati. M., 1981. -B.614.

“Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at” kitobida esa *ranjning*:

1.mehnat; qadam aylamoq, qiyin bo‘lsa ham borib kelmoq;bezovtalik; - ga qolmoq, bezovta bo‘lmoq;

2.ozor chekmoq ¹kabi ma’nolari berilganligini ko‘ramiz.

Demak, ushbu misollarimizdan ko‘rinib turibdiki, ijodkor ifodaning birinchi qatorida qo‘llagan “*ranjkom*”miz leksemasining “*ko‘ngilga ozor etkazuvchi*” kabi semasiga ishora qilinadi. Ifodaning ikkinchi qatorida qo‘llangan “*ranjitmoqlik*” leksemasida esa “*ozor berish, ranjitish, azoblash, qiynash, ko‘ngilga ozor etkazmoq*” kabi semalari nazarda tutiladi. Ifodada o‘rinli qo‘llanilgan “*ranjkom*”, “*ranjitmoq*” so‘zlari ifoda ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilsa, yana kinoya ma’nosidagi“*siyla*”gaymiz leksemasi,“o‘tkir nishimiz” metaforali birikmasi ham o‘z o‘rnida qo‘llanib, ijodkor maqsadini yuzaga chiqarishda asosiy vosita bo‘ladi.

2.2. Dostonlar tilida eskirgan leksemalarning ifoda imkoniyatlari

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham boshqa qator fanlar singari tizimli asosda yondashish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga kirishildi. Buning natijasida badiiy asarda adabiy tilning barcha sath birliklari uchun xos bo‘lgan xususiyatlar tavsifiy yondashuvdan tahliliy, ya’ni yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Tarixiy janrda qalam tebratgan adib tasvir etilayotgan davr hayotining manzarasini to‘la gavdalantirish, ya’ni asarning haqqoniyligini ta’minlash uchun o‘sha davrning tiliga oid xususiyatlarni ham saqlashga majbur. Albatta, o‘tmishning, ayniqsa, uzoq o‘tmishning kishilari tilidagi xususiyatlarni tasvirlashda ma’lum me’yorni saqlash zarur, Chunki hozirgi zamon adabiyotida tasvirlangan o‘tmish kishilari to‘la-to‘kis ravishda o‘z zamonining tili bilan gaplashsalar, ularning tili bugungi o‘quvchi uchun tuShunilmasligi mumkin.

¹Navoiy asarlari uchun qisqa lug‘at, FA “Fan”nashriyoti,1993. -B.62.

Shunday ekan, badiiy asardagi har bir soʻz va shular qatorida kam isteʼmol doirasida boʻlgan tarixiy soʻzlar ham badiiy asarning yaratilishida, uning estetik qimmatini va taʼsir koʻlamida muhim ahamiyatga ega. Badiiy ijodda boshqa soʻzlar singari tarixiy soʻzlarning ham oʻziga xos oʻrni bor. Tarixiy soʻzlarning oʻziga xos funksiyalari aniqlanib, tadqiq etilishi bu sohada yangi fikrlar paydo boʻlishi mumkinligidan dalolat beradi. Tarixiy soʻzlar arxaizm va istorizmlardan iborat boʻlib, ularning qaysi janrda qoʻllanishi ham uslubiy oʻziga xoslikni namoyon qiladi.

“Maʼlumki, eskilik buyogʻiga ega boʻlgan, bugungi kunda ham maʼnodosh-sinonimi mavjud soʻzlar - arxaizmlarning leksik, semantik, grammatik arxaizmlar kabi koʻrinishlari mavjud boʻlib, badiiy asarning toʻlaqlonligini taʼminlovchi omillardan biri sifatida oʻz oʻrniga ega. Tilda “soʻzning yaxlitligicha eskirishi bilan leksik arxaizmlar, uning biror maʼnosining eskirishi bilan semantik arxaizmlar va ayrim koʻrsatkichlarning eskirishi bilan esa grammatik arxaizmlar vujudga keladi”.¹ Badiiy asarda, xususan, nazmda “arxaizmlar yozuvchi tomonidan, avvalo, davr ruhini, tarixiy sharoitni koʻrsatish uchun ishlatiladi. Ular badiiy asar tiliga tantanavor, koʻtarinki ruh berish bilan birga oʻziga xos estetik qimmat kasb eta²

“Oʻzi anglatgan narsa va hodisalarning yagona atamasi boʻlib, hozirgi hayotda uchramaydigan faqat tarixiy narsa, yoki voqea hodisalarning nomini bildiruvchi istorizmlardan (istorizm- yunoncha soʻz bulib, historia - «tekshirish», «tadqiqot» demakdir)³ esa tarixchilar, olim va yozuvchilar tarixiy voqea va hodisalarning real tasvirini berish, badiiy asarga tarixiy ruh berish uchun foydalanadilar”⁴. “Arxaik soʻzlar tarixiy voqea, hodisalarni real tasvirlashda uslubiy vosita boʻlib, badiiy asarlarda, baʼziijtimoiy-siyosiy uslubda yozilgan

¹Shanskiy N.M. Sovremenny russkiy yazik.Chast 1.Moskva-2081.-S.57. Abdurahmonov H.,Mahmudov N. Soʻz estetikasi.T.:Fan,1981.-B.17.

²Abdurahmonov H., Mahmudov N. Soʻz estetikasi.T.:Fan,1981.B.19.

³Oʻzbek tili praktikumi 1- qism [Fonetika. Leksikologiya. Frazologiya. Morfemika. Soʻz yasalihi]

⁴Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻchqorov R.Oʻzbek tili stilistikasi.T.:Oʻqituvchi.1983.-B.52.

tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax-masxara ruhi va hajv ottenkasini berish uchun ham ishlatiladi”¹. H.Abdurahmonov va N.Mahmudov “Arxaizmlarning stilistik imkoniyatlaridan biri uning badiiy nutqqa nazokatli, “yumshoq” ruh berishidir”², deya ta’riflaydilar. Arxaizmlarning “badiiy asar tiliga tantanavor, ko‘tarinki ruh berish” maqsadida qo‘llanishi “badiiy asar tiliga alohida rang va o‘ziga xos jarang bag‘ishlaydi”³. B.Umurqulov arxaizmlarning poeziya tilida sermahsul manba ekanligini e’tirof etadi.⁴

Buyuk rus yozuvchisi N.V.Gogol va M.Abdurahimov, I.Mirzaev kabi o‘zbek olimlari tarixiy so‘zlarning poetikadagi o‘rnini shunday baholaydilar: “Tarixiy so‘zlar, ijodkor ifoda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tarixiy davr ruhini to‘laligicha, butun bir borlig‘i bilan gavdalantirishidir. Ikkinchi tomondan esa ironik va parodik taqlid ifodalab, she’riy matnlarga tantanalilik va patetiklik, ya’ni hayajonli, orziqishli ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi”⁶.

Istorizmlar kam iste’mol doirasida bo‘lishiga qaramay, “Sohibqiron” tarixiy she’riy dramasida ahamiyatli o‘rin egallaydi va uning estetik qimmatini oshirishda etarlicha xizmat qiladi. Arxaik so‘zlar asardagi tarixiy voqealarni haqqoniy, ishonchli qilib tasvirlashda muhim uslubiy va estetik vosita vazifasini o‘taydi.

*Olampanoh nomidagi u masjid esa
Biznikidan sal mo‘jazroq,
Xijolatdaman.¹*

Bu yerda ijodkor shoh, xon leksemalari o‘rnida “*olampanoh*” leksemasini qo‘llaydi. *Olampanoh* arxaizmi, dostonga birinchi o‘rinda tantanavorlik ruhini bag‘ishlasa, ikkinchidan u voqelik, tuyg‘u va shaxsning o‘ziga xos tomonlarini,

¹Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘chqorov R.O‘zbek tili stilistikasi.T.:O‘qituvchi.1983.-B.51.

²Abdurahmonov H.,Mahmudov N.O‘sha kitob.-B.19.

³Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z.T.:Fan,1981.-B.31.

⁴Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z.T.:Fan,1981.-B.31.

⁶ L.N.Gogol o literature,M.,1952.-S.116.; AbdurahimovM.Qisqachao‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at.T.:O‘qituvchi,1980.-B.4.;Mirzaev I. K. Problemi lingvopoeticheskoy interpretatsii stixotvornogo teksta: avtoref. diss. dok.fil.nauk.Tashkent.1992.-S.146.

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.396.

sifatlarini aniqlab, ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatish xususiyati bilan epitet, ya’ni sifatlash “badiiy aniqlovchi” vazifasini bajaradi. Ma’lumki, shoh, xon, olampanoh leksemalarining birlashtiruvchi umumiy belgisi ular tarkibida “muayyan hududni boshqaruvchi”, “mansabdorlik”, “mansabdor shaxs“, “ulug‘ mansab egasi” semalarining mavjudligidir. Shoir doston voqealari davriga xos haqqoniylikni ko‘rsatish, sub’ektiv munosabatni aniq va ravshan ifodalash maqsadida “*olampanoh*” leksemasidan o‘rinli foydalangan.

Xoja Yusuf!

Samarqandning siz dorug‘asi,

Tantana-yu to‘ylar uchun shahar tayyormu?

Konigilda bazm bo‘lg‘ay qirq kecha kunduz²

Ushbu badiiy ifodadagi “*dorug‘a*” so‘zi ham dostonga muayyan ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ijodkor dostonning ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida “*hokim, ish boshqaruvchi*” leksemalari o‘rnida “*dorug‘a*” leksemasini o‘rinli qo‘llaydi. Bu yerda “*dorug‘a*” leksemasidagi “obro‘li”, “mo‘tabar”, “tabarruk”, “martabali”, “hurmatli” kabi ichki ma’nolari matnda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu ifodada o‘zbeklarga xos o‘zbekona milliy an’analarimiz, milliy qadriyatlarimizga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom tuyg‘ulari o‘ziga xos ifodasini topadi. “Dorug‘a” so‘zi yordamida yuqoridagi yashirin ma’nolar yuzaga chiqib, ajratilib, bo‘rttiribroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Er yuzining adadi yo‘q barcha boyligi

Samarqandga oqib turgan shunday zamonda

Raiyatga siz ortiqcha soliq solibsiz.¹

Ushbu she’riy parchada qo‘llangan raiyat leksemasiga e’tibor qaratar ekanmiz, uning arxaikligi, hozirda iste’mol doirasida emasligi, Shuningdek, dostonga ta’sirchanlik va tantanavorlik baxsh etishini kuzatamiz. Bunda Shoir

² Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B 411.

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.437.

raiyat leksemasini qo‘llash bilan “xalq”, “fuqaro” semasiga ishora qiladi va dostonning tarixiylikni ta‘minlash bilan birga estetik qimmatini oshirishga erishadi.

Ana, maydon to‘layotir xaloyiq bilan

Samarqand xo‘b sog‘inibdur valine‘matin.¹

Ushbu satrlardagi “valine‘mat” leksemasi tarkibidagi “ulug‘vorlik”, “saxovatpeshalik” singari semalar namoyon bo‘lib, doston qahramonining ijobiy fazilatlarini yoritib berishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Bundan tashqari “valine‘mat” leksemasi “oliyhimmat”, “sahiy”, “xayrli”, “sahovatli”, “qo‘li ochiq”, “ochiq ko‘ngil” ma‘no qirralarini namoyon qilar ekan, o‘ziga qarashli kishilarni moddiy jihatdan ta‘minlab turuvchi, ularga ne‘mat beruvchi shaxs ma‘nosida jamlanadi. Dostonda ko‘plab arxaizmlardan ijodiy foydalanilganligi kuzatiladi.

Aqcha etmay, qiynalishib qolgan fursatda,

Raiyatga soliq soldik.

Bu misralardagi tarixiy so‘zlarning ketma-ket kelishi satrlararo ta‘sirchanlikni ta‘minlash, tasvirdagi tarixiy muhitni yorqinroq ifodalash maqsadida qo‘llangan “aqcha” so‘zi tarkibidagi “pul”, “raiyat” dagi “xalq”, “fuqaro” tagma‘nolari faollashadi. Bunda yana “tarixiylik” semasi ham yuzaga chiqadi.

Karnay-surnay, naqoralar shay bo‘lsin, Xoja,

Saltanatning tarixida ulug‘ kun bu kun.

Uyushib kelgan uyadosh so‘zlar: “karnay, surnay, naqora” ifodaga bevosita milliy ruh kiritsa, “saltanat” arxaizmidagi “yurt”, “o‘lka”, “vatan”, “davlat” semalari ahamiyatli bo‘lib, tasvirdagi ulug‘vorlik, tantanavorlikni kuchaytiradi.

Kecha tunda odatimcha shahar aylanib,

Bir madrasa hovlisiga tashrif buyurdim.

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001. -B.451.

Bu – uchovlon hujranishin, suhbat qilardi.

Yoki:

*Xonim oyim, sizning bergan buyruqqa ko‘ra
Keltirmishlar uch nafar yosh mullavachchani.¹*

Keltirilgan badiiy ifodalarda “*madrasa*”, “*mullavachcha*” kabi so‘zlar ma’lum bir davrda, ya’ni sho‘rolar davrida iste’mol doirasidan tushib qolgan bo‘lib, ularni faqat tarixiy asarlarda, umuman, tarix bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarda uchratish mumkin edi, hozirda esa bu ifodalar mustaqillik sharofati bilan yana yangitdan iste’molga kirdi. Yana Shoir ushbu ifodada qo‘llagan “*hujranishin*” leksemasidagi “kishi yashaydigan xona” yoki “kichik” xonadagi oddiy kishilar suhbatiga emas, balki “madrasa, qorixona va masjidida shogirdlar, domullalar yashashi uchun ajratilgan kichik xonalardagi kishilar suhbatiga”ga ishora qiladi. Demak, *madrasa*, *mullavachcha*, *hujranishin* so‘zlari tarkibidagi qator semalar integral semalar hisoblanib, ushbu leksemalarni bir mazmuniy uyaga birlashtiradi. Ushbu badiiy ifodalar dostonning tarixiyligini ta’minlash bilan birga davr ruhini ifodalaydi va asarning estetik qimmatini oshiradi.

Men Temurning zavjasiman,

Hoy mullavachcha,

Javobim ham, jazoim shul:

Etisholmassan.

Ushbu misralardagi “*zavja*” arxaizmi birinchidan, dostonga ohangdorlik va tarixiylik baxsh etsa, ikkinchidan Bibixonimning shunday buyuk zotning rafiqasi ekanligidan minnatdorligi va o‘z umr yo‘ldoshiga bo‘lgan sadoqati ifodalanib, aynan, *zavja* leksemasidagi “*rafiqa*”, “*qayliq*” semalariga urg‘u beriladi.

Har dahada bir nafardan noinsof qassob

O‘zi qurgan kanoraga osib qo‘yilsin!²

¹Abdulla Oripov. O‘sha asar. -B.467.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001. -B.405.

Bu yerda esa e'tiborimizni daha va kanora leksemalariga qaratish mumkin bo'ladi. Bugungi kunda "*kanora*" lug'aviy birligi arxaizmga aynalib, iste'mol doirasidan chiqqanligi kuzatiladi. Shuning uchun ham ushbu leksemaning qo'llanishi dostonning tarixiy asar ekanligidan darak berib, bevosita ifodaning estetik qimmatini oshirishga xazmat qiladi. Bunda ijodkor asosiy e'tiborini "*ramazon oyida o'tkaziladigan o'n kunlik ibodat va u bilan bog'liq marosim*", "*ipak qurtining uyquga kirish pallasi*", "*o'nta piyoda askardan iborat harbiy bo'linma*" kabi ma'nolarga ega omonim leksemalarga emas, balki "*shahar yoki volostning ma'muriy-hududiy bo'limi*", (*rayon*) "*tuman*"¹ semasiga ega leksemaga ishora qiladi. Kanora leksemasida esa asosiy urg'u "*bir chetda qurilgan, qassoblar uchun mo'ljallangan kichik hujra*"² semasiga berilgan.

2.3. Individual neologizm yaratish uslubi

Vaqt o'tishi, davr va zamonning asta-sekinlik bilan o'zgarib borishi, jamiyatning barcha sohalaridagi tub o'zgarishlar, fan-texnika yutuqlari, ijtimoiy munosabatlar, kishilar hayotidagi tinimsiz madaniy va ma'naviy o'zgarishlar yangi tushuncha va so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yangi so'zlar – neologizmlar qatlami yangi so'z yasash, so'zning leksik ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yoki chetdan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyib boradi. Xususan, individual neologizmlar, boshqacha qilib aytganda – okkozionalizmlar, nominativ funksiya bajarishi bilan birga badiiy adabiyotda o'ziga xos muayyan uslubiy maqsadda ham qo'llanilishi kuzatiladi. "Katta ta'sir va tasvir kuchiga ega bo'lgan individual nutq neologizmlari"³ ijodkor tamonidan kashf qilingan yangi so'zlar bo'lib, badiiy asarni yangi ruh, yangicha shukuh bilan boyitishga xizmat qiladi. Har bir yozuvchi va Shoir ning o'ziga xos tili, uslubi, o'ziga xos poetizm va individualizmi bo'lgani kabi, ana shu

¹O'zbek tilining izohli lug'ati, birinchi jild, N-Tartibli, T., 2006.-B.582.

²O'zbek tilining izohli lug'ati, uchinchi jild, N-Tartibli, T., 2006.-B.315.

³Shomaqsudov A., Rasulov I., O'zbek tili stilistikasi, T., O'qituvchi, 1983.-B.34.

xususiyatlar zamirida yaratilgan yangi soʻzlar, yaʼni kontekstual² okkozionalizmlar badiiy asar tilida muhim oʻrinni egallaydi. Okkozionalizmlar har qanday badiiy asar tiliga emotsionallik va ekspressiv ruh bagʻishlash bilan birgalikda, ijodkorning adabiy til xazinasiga qoʻshgan munosib hissasi hamdir.

”Badiiy asarning maʼno-mazmun tuzilishiga soʻz va iboralarning turli-tuman qoʻshimcha maʼnolar bilan boyish tamoyili xosdir”¹. Badiiy asarlarda kashf etilgan yangi soʻzlar ijodkorning yuksak mahoratiga bogʻliqdir. Soʻzning yangi maʼno qirralarini ochish, uning taʼsirchanlik va boʻyoqdorlik koʻlamini kengaytirish ijodkordan kuchli mahorat, bilim va iqtidor talab qiladi. Jamiyat rivoji, obʼektiv borliq va tabiatdagi oʻzgarishlar, ular haqida kishilar tasavvuri va tushunchasining boyishi, insoniyat ilmiy, maʼnaviy va madaniy tafakkurining kamol topa borishi yangi soʻz, yangi termin va iboralarga ehtiyoj tugʻdiruvchi asosiy omillardandir. Mana shu ehtiyojni qondirish uchun tilda yangi soʻzlar yuzaga chiqadi. Yangi soʻz, yaʼni soʻzning yangiligi adabiy til rivojining muayyan davrdagi holatiga nisbatan belgilanadi. Yangi soʻz birinchi duch kelgan kishiga, ayniqsa, eski til leksik meʼyori bilan tanish keksa avlodga gʻayri tabiiydek tuyuladi. Bu hol lingvistikada leksik idiosinkraziya deb yuritiladi va, aynan, badiiy asarlarda oʻz ifodasini topadi.

Ijodkorlar baʼzan oʻzlari individual nutq neologizmlarini ham yaratadilar.

Ikki tildosh,

Ikki dindosh bitta turk qavmi

Olishsalar,

Talashsalar nomus emasmi?²

Bu yerda esa A.Oripov *dindosh* soʻziga qofiyadosh soʻz qoʻllashdan koʻra dindosh soʻziga qofiyadosh boʻla olgan yangi soʻz “tildosh” leksemasini kashf qilgan. Aslida oʻzbek tilining leksik meʼyoriga bunday soʻz toʻgʻri kelmaydi,

² Шанский Н.М. Современный русский язык. Часть 1. Москва-2081.-С.61.

¹Виноградов В. В. Проблемы авторства и теория стилей.М.Наука,1961.-С.11.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.347..

qo‘llanilmaydi. Demak, ijodkor o‘z fikrini aniq bildirish maqsadida *-dosh* qo‘shimchasi yordamida yangi “*tildosh*” individual yasama so‘z hosil qiladi.

Biz ma’naviy tashkilotmiz, Ranjkommiz ya’ni

*O‘zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.*¹

Uch ming yillik tarixiga ega bo‘lgan ona tilimizga boshqa tillar kabi rus tilidan ham ko‘plab qisqartma so‘zlar kirib kelgan. SHo‘ro mustamlakasi davrida tuzumga oid tushunchalarni ifodalaydigan ko‘plab so‘zlar lug‘atimizga kirib kelgan. Rus tiliga xos ana shu qisqartma so‘z yasash usuli asosida ijodkor *ranjituvchi komitet (qo‘mita)* so‘zlarini qisqartirish (abbreviatsiya) orqali yangi “*ranjkom*” so‘zini kashf qiladi. Ushbu neologizm doston qahramonlarining salbiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. “Ranjkom” leksemasining bu yerda satirik xususiyatini ham aytib o‘tishimiz mumkin.

Davlat aslo tavakkalning mevasi emas,

U raiyyat,

Ya’ni xalqning g‘uj irodasi.

Mo‘l xazina

*Yengilmas lashkar.*²

Ushbu ifodada ham ijodkor mohirlik bilan sintaktik birliklar yordamida kashf qilgan individual neologizmlarga duch kelamiz. Bunda *tavakkalning mevasi, g‘uj iroda* kabi yangi sintaktik birliklar doston asosiy qahramonining davlatga munosabati, davlat to‘g‘risidagi fikrlarini, unga bo‘lgan munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Bu yerda Amir Temur ushbu sohada tavakkalchilikka yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, davlat boshqaruvida, asosan, xalqning birdamligi, mustahkam irodasi muhimligi haqidagi fikrlarini aks ettirish uchun yaratilgan yangi sintaktik birliklar, ya’ni okkozionalizmlarda o‘z ifodasini topgan.

Okkazional so‘zlar, asosan, ma’no kuchaytirishga xizmat qiladi. *Hijron qilich solar* sintaktik birligida insonga xos “qilich solmoq” fe’lining

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.346.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.369.

xijron(mavhum ot)ga nisbatan qo‘llanishi ayriliq azobi ma’shuqa(inson, yor) qalbini tilka-pora qilganligiga ishora sifatida o‘rinli qo‘llanadi. Bunda nutqimizda mavjud bo‘lgan til birligining yangi, ohori ketmagan ma’nosining shoir tomonidan kashf etilishi “hijron qilich solar” sintaktik birligini individual muallif okkazionalizmi sifatida taqdim etishga asos bo‘la oladi.

Yuqoridagi tahlilimizdan ko‘rinadiki, neologizmlar A. Oripov dostonlarida ham o‘ziga xos o‘rin tutib, dostonlarga musiqiylik, yoqimlilik, ohangdorlik bag‘ishlash, shuningdek, ma’noni kuchaytirishda, obrazli tasvirlar yaratishda muhim omil bo‘la oladi. Neologizmlar, asosan, individuallik kasb etishi bilan Abdulla Oripov dostonlarida ham ijodkorlarning o‘ziga xos mahoratidan darak beradi.

2.4. Paremalarning badiiy-stilistik xususiyatlari

Parema, paremiya (yunoncha paronimia-masal, ramzli hikoya) ad. Ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora, maqol, matal¹. Badiiy tilimiz hissiy bo‘yoqdor so‘zlar, tasviriy ifodalar va iboralarga boy. Binobarin, badiiy tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli individual shaxs yoki ijodkor tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir. Til qalb ko‘zgsidir. Bu ko‘zguning qanchalar go‘zal, beg‘ubor va betakror ekanligi xalq tili imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanib, obrazli badiiy tasvir yarata olishda namoyon bo‘ladi. Iboralarning, nafaqat, og‘zaki uslubda, nasrda, balki nazmda ham o‘ziga xos o‘rni bor. Nutqning bunday lingvistik vositalari yordamidagi ifodasini Abdulla Oripov dostonlarida ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Birdan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatuvchi lug‘aviy birliklar², ya’ni ibora va frazeologik birliklar badiiy ijodda katta ahamiyatga ega. Buni ko‘plab

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, uchinchi jild, N-Tartibli, T., 2007.-B.222.

² Аникин В.П. Предисловие к Словарю русских пословиц и поговорок, сост. В.П. Жуков, М., 1966.-С.6.

tilshunoslar o‘z tadqiqotlarida asoslab berganlar.¹ A. Oripov dostonlarida ham ana shu xalq tili boyligining qadrini, uning turli ma’no jilvalarni ardoqlangan. Ular ijodida ozodlik, ruhiyat erkinligi, milliy o‘zlikni anglash mavzulari yetakchi hisoblanadi. Bu mavzudagi dostonlarda iboralar ijodkorlarning mahorati bilan yangicha ifodalangan, ta’sirchanligi oshgan. Kuzatuvlarimizdan ko‘rinadiki, iboralar Abdulla Oripov dostonlarida 2 xil aks etgan:

1. *Ijodiy ishlangan, ya’ni o‘zgargan iboralar.*
2. *Ilk shakli saqlangan iboralar.*

Quyidagi tahlillarimiz fikrimizni asoslab berishimizda yordam beradi deb o‘ylaymiz.

Xalq iboralarining konnotativ ma’noda qo‘llanilishi, mumkin qadar uslubiy bo‘yoqdan unumli foydalanish, dostonda obrazlilikni oshirib ko‘rsatishga, bor xususiyatlari bilan ochib berishga xizmat qiladi.

Unutmangki, bemor zoti hamisha mo‘min,
Yaxshi gapning gadosi u qadimdan- qadim.²

“*Bemor zoti hamisha mo‘min*” iborasida kontekstga nisbatan birmuncha kinoya va kesatiq yashiringan. Bu yerda “*bemor*” leksemasining “*soxta*”, “*mo‘min*” leksemasining esa qo‘shirnoq ichida “*yuvosh*” tagma’nolari namoyon bo‘lib, majoziylik, ya’ni stilistik bo‘yoqdorlikni yuzaga chiqaryapti. Yana “*bemor*” leksemasidagi “*soxta, ayyor*” yoki “*mo‘min*” leksemasidagi vaziyat, holatdan kelib chiqqan holda, ishini bitirish maqsadida o‘zini “*hojatbaror, yuvosh*” qilib ko‘rsatish semalariga ishora qiladi va asarda

¹Babadjanov F. O‘zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida): filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Samarqand, 2002.-B.23.; Boymirzaeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi: filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Samarqand, 2004.-B.23.; Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fan. d-ri diss. – Toshkent, 1994. – 292 b.; Normurodov R. Shukur Xolmirzaev asarlarining til xususiyatlari: filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Toshkent, 2000. – 25 b. Sayidov Y. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Toshkent, 2001. – 24 b. Tojiboev M. Muhammad SHayboniy devoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Toshkent, 2004. – 24 b. Toshxujaeva SH.G‘. Erkin A‘zam asarlari lingvopoetikasi: Filol.fan...falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. – Farg‘ona, 2017. –50 b. Xalikov A. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: filol. fan. nomz... diss. –Toshkent, 2009. –24 b. Xamraeva X. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi: filol. fan. nomz... diss. avtoref. Toshkent, 2012. – 27 b. Xasanov A. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta’minlovchi leksik-stilistik vositalar: filol. fan. nomz... diss. avtoref. –Toshkent, 2010. –26 b.

Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B..349.

anglashilayotgan shaxsning xarakteridagi salbiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Dostonlar badiiyligini ta'minlab beruvchi stilistik bo'yoq, ya'ni konnotativlik leksik ma'noga suyanadi va leksik ma'noni qurshab turadi. Ushbu ifodada esa stilistik bo'yoq kontekst yordamida ifodalanyapti. "Yaxshi gapning gadosi" birikmasidagi "yaxshi" leksemasining *o'rtacha, qoniqarli, mo'tadil, me'yorida* va "gado" so'zining *"muhtojlik, zorlik, yo'qsillik, nochorlik, yo'qlik"* kabi ma'nolari namoyon bo'lib, ijodkor fikrini yoritishda asosiy vazifani bajaryapti.

*Qoyilmisan? Bu ham mening bitta usulim,
Atay tegmoq bo'ldim sening qitiq patingga.
Kambag'alni ko'rib qolsang boylikdan so'z och,
Ko'zi ojiz kimsalarga quyoshdan gapir.¹*

Ifodadagi "qitiq patingga tegmoq" frazemasida yaxlitligicha jig'iga tegmoq, joniga tegmoq, asabiga tegmoq, g'azabini keltirmoq kabi semalarni ifodalay oladi. Bu yerda esa "qitiq pati" mazmuniy birligining "asabi(g'ashi, joni)ga tegmoq" semalari mavjud bo'lib, bu yerda, asosan, *asab* semasiga ishora qilinib, badiiy ifodada obrazlilikni ta'minlashga erishilgan.

Yuqoridagi misralarda bir-biriga mazmunan qarama-qarshi bo'lgan "kambag'allik" bilan "boylik", "ko'zi ojiz" bilan "quyosh" lug'aviy birliklari o'zaro birlashtirilib, yangi umumlashma ma'no yoki "mos emaslik" semasi ifodalanayapti. Aslida kambag'al bilan boy o'rtasida katta to'siq, chegara, distansiya mavjud, yoki favqulodda holatlarda bir-biriga zarurat yuzasidan duch kelib qolishlari ehtimoli mumkin, ko'zi ojiz kimsa bilan sog'lom kishi o'rtasida ham juda katta farq bor. Ko'zi ojiz kishi quyosh xaqida ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lsa-da, uning imkoniyatlaridan to'la bahra ololmaydi. Shunga qaramasdan ifodada ikki qarama-qarshi qutb(kontrast) – kambag'allik va boylik, ojizlik va quyosh birlashtirilgan. Shu o'rinda "kambag'al" leksemasining *muhtojlik, zorlik, g'ariblik, tushkunlik, sharoiti*

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.354.

og'ir, “*boylik*” leksemasining *boy, badavlat, dunyosi ko'p, beli baquvvat*, “*ko'zi ojiz*” leksemasining “*ko'r, so'qir, qorong'u, qora, ko'rolmaslik, ojizlik, quyosh*” leksemasining “*nur, ziyo, yorug', issiq*” ma'nodagi “*qalb ko'zi ojiz*”ligiga ishora qilinadi.

Ushbu semalarning yuzaga chiqishi, badiiy matnda anglashilayotgan obrazni individuallashtirishga, uning salbiy xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Chunki, hikmatli so'z va barqaror birikmalar asarni ixcham, mazmundor, yoqimli qiluvchi va ohangdorlikni ta'minovchi omil hisoblanadi.

*Foydalanib qolmoq kerak, fursatni bilib,
Oshga qo'lni cho'zmoq kerak beor va xira.¹*

Ushbu ifodada ham qo'shtirnoq ichidagi “*ishbilarmonlik, o'z foydasini ko'zlash*” kabi buzg'unchi g'oyalar olg'a suriladi. Shu o'rinda ijodkor yangi ibora kashf qiladi va bunda “*oshga*”, “*qo'lni*”, “*cho'zmoq*”, “*kerak*”, “*beor*”, “*xira*” lug'aviy birliklaridan unumli foydalanadi. Ijodkor kashf qilgan frazeologizm, “*oshga qo'lni cho'zmoq kerak beor va xira*”, dostonida ko'chma ma'noda qo'llanilib, oriyati yo'q, beta'sir, ikkiyuzlamachi, faqat o'z manfaatini o'ylab ish yurituvchilarga nisbatan kinoya tarzida kesatiq, piching ma'nosi ifodalangan.

*Kayfi uchgan ko'knoriday baqraydi avval,
Ne deyarin bilmay qoldi butkul dovdirab.*

Ijodkor “*kayfi uchgan ko'knoriday*” iborasini ustalik bilan qo'llab, muayyan guruh shaxslarga xos belgi va sifatlarni personajga ko'chiradi. Iboradagi birgina “*ko'knori*” leksemasini olib ko'radigan bo'lsak, ko'knorning birinchi belgisi – predmet, aynan, o'simlik nomini bildirishi, ikkinchi belgisi esa - siyoh rangda ekanligini, Shuningdek, metonimik qo'llanish orqali shu xil o'simlik iste'moliga o'rganib qolgan shaxsni ifodalaydi. Ushbu o'rinda, “*kayfi uchgan ko'knori*” iborasining “*garang bo'lib qolmoq, karaxt bo'lib qolmoq,*

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001. - B. 359.

dovdiramoq, g‘azablanmoq” kabi semalari yuzaga chiqadi. Iboraning semalari doirasida harakat uzvlari namoyon bo‘lishi bilan badiiylikdagi majoziylik va konnotativlikni kuzatamiz.

Manfaat deb mag‘zavaga tashlangiz kalla,

Qo‘y terisin yopiningiz, suruvga kiring.¹

Yangi-yangi iboralar kashf qilishlik A.Oripovday ijodkorning individualizmiga xos xususiyatlardandir. Ijodkor “*mag‘zavaga tashlangiz kalla*”, “*qo‘y terisin yopiningiz*” kabi iboralarni qo‘llaydi va ushbu iboralarning “*iflos, jirkanch*” va “*ko‘rinishdan yuvosh*” kabi ma‘nolariga ishora qiladi. Ushbu semalar “xulqi buzuq, yomonlikni o‘ziga kasb qilib olgan, yomon niyatli, ayyor” kimsalarning asl basharalarini, xarakterlarini, ko‘rsatib beradi. Shoir nega aynan “qo‘y terisi”ni tanlaydi? Milliy mentalitetimiz, qadriyatlarimiz asosida shakllangan “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”, “qo‘yday yuvosh”, “qo‘yni bo‘riga topshirmoq” kabi iboralardagi “qo‘y”komponenti tabiatan og‘ir-vazmin, fe‘li keng xalqimiz vakillariga xos belgilarni ifodalovchi an‘anaviy obrazli ifodaga aylangan. Shoir ana shu holatni nazarda tutgan holda, kinoya tarzida “qo‘y terisini yopinib, suruvga kirish” tarzida qo‘llab, individual variant yaratgan.

U bor joyda ichimizdan ketar edik zil,

Yurar edik mozoriga pinhon g‘isht qalab.

Misralardagi “*mozoriga g‘isht qalamoq*” va “*ichdan zil ketmoq*” iboralarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu iboralarning ifodada, birinchidan, fazilatli, omadli insonlar yutug‘idan hasadga, qayg‘uga botgan kimsalarga qaratilganligi, birovlarining yutug‘ini ko‘ra olmasliklari, hazm qila olmasliklari, o‘z ich-etlarini eyishlari, tegmaganga tegib, tekkanga kesak otishlari, doimo yomonlik tilab, birovlar uchun choh qazib yurishlariga ishora qiladi. Inversiya talabi bilan o‘zgartirilgan “*ichimizdan ketar edik zil*”shaklidagi iboraning

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.371.

kuykanaklik, hasadgo'ylik semasi, *“mozoriga g'isht qalab”* iborasining esa ko'rolmaslik, birovga chuqur qazimoq kabi semalari namoyon bo'ladi.

Ijodkor dostonda iboralardan unumli foydalanish bilan birga ularni mohirona qofiyalaydi, ba'zan esa doston g'oyasi, mazmuni, shakli, ta'sirchanligini ta'minlashda obrazli vositalaridan foydalanadi, yangi-yangi, xalq iboralariga yaqin barqaror birikmalar kashf qiladi.

Biz “Ranjkom” miz, biz hammani ranjitamiz, bas.

Shu- asosiy vazifamiz, chiqarmang yoddan.

Bemanfaat do'zaxda ham yonmaymiz ammo,

Qaysi mushuk yotar ekan oftobda tekin.¹

Millatimizga xos ixcham, lo'nda, qisqa va donishmandlarcha fikrni bayon qila olish san'ati xalq og'zaki ijodidan qolgan bebaho qadriyatdir. Shoir *“mushuk bekorga oftobga chiqmaydi”* matalini *“qaysi mushuk yotar ekan oftobda tekin”* tarzida o'zgartirib, o'rinli qo'llaydi.

Har so'zingiz nishoniga tekkay bexato,

Zarur bo'lsa, gulxan qilib yoqursiz qorni.²

Ifodada aytilgan *“gulxan qilib yoqursiz qorni”* jumlasidagi fikr majoziy ma'noda qo'llanilgan. Chunki qor(yonmaydi)ni hech qachon gulxan qilib yoqib bo'lmasligi barchaga ayon. Biroq, ushbu ibora qo'shtirnoq ichidagi, *“kerak bo'lsa qorni yoqa oladigan”*, demak, *o'ta ayyor, takabbur, tadbirkor, o'z manfaati, foydasi yo'lida har qanday ishdan tap tortmaydigan, yo'qni yo'ndirishga qodir* kimsalarga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, *“Qalovini topsang, qor ham yonadi”* maqoliga ishora qilinadi.

Birlik yaxshi, chang chiqarmas derlar yolg'iz ot,

Tashkilotni har jihatdan butlamoq kerak.³

Ushbu ifodada muallif leksik qo'llashdan unumli foydalanadi va *“yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas”* maqolini biroz

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.348.

²Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.305.

³Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.Ikkinchi jild.T.,2001.-B.315.

o'zgartirib, individuallashtiradi va ushbu ideomani tashkilotga nisbatan qo'llaydi. Maqoldagi umumiy ma'no "ot" leksemasiga tegishli hayvon semasiga emas, balki kognitiv ma'no anglashilayotgan insoniylik, hamjihatlik, birlik, maslakdoshlik, birlashmoq kabi semalariga ishora qilgan holda tashkilot a'zolarini "g'arazli niyatlarini amalga oshirishda" birdamlikka chorlaydi. Ot leksemasi hayvon leksemasiga sogiponim bo'la oladi. "Ranjkom" dramatik dostoniga epigraf qilib olingan quyidagi misralar o'quvchi e'tiborini tortmay qo'ymaydi, o'ylarga toldiradi, fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

A.Oripov "Hakim va ajal" dostonida antitezadan unumli foydalangan. Buni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin :

O'ng bilan tush, vujud va ruh, tafakkur borliq

Uning zehni idrokida edi hukmron

Bu dunyoda inson bilan ne bo'lsa bog'liq,

Chulg'ar edi xayolini mo'jizasimon.

Keltirilgan misralarda o'ng-tush, vujud-ruh so'zlari orqali antiteza hosil qilingan. Vujud-ruh so'zlari orqali Abu Ali ibn Sino insonning bu dunyoga nima uchun kelishi, bu dunyoda muhabbat va o'limdan boshqa barcha dardlarning davosini topganligi haqidagi o'ylari ham ifodalangan.

Tingla Mirzo, mana buni deydilar qiyos

Bu – Buxoro malikasin yurak ifshosi:

Sen – tubansan, u-chi yuksak , sen – hok, u – quyosh

Sen – gadosan, u – tafakkur mulkin podshosi¹.

Misralardagi tuban -yuksak, gado-podsho antonimlari orqali antiteza hosil qilingan. Hok - quyosh so'zlari orqali shartli antiteza hosil qilingan. Bu misralar orqali shoirning Mirzo va Abu Ali ibn Sinoga bo'lgan munosabati yaqqol ifodalangan. A.Oripovning "Hakim va ajal" dostonida o'quvchining mushohada

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.312.

yuritishi, voqelik haqida kuchli taassurot uygʻotish maqsadida qoʻllangan zid maʼnoli soʻzlar vositasida qarama-qarshi holat, ruhiy kengliklar ochib beriladi.

Keltirilgan tahlillarimiz asosida Shuni aytishimiz mumkinki, “Ranjkom” dramatik dostonida qoʻllanilgan hikmatli soʻz va barqaror birikmalar ijodkor uslubining betakrorligi, uning oʻziga xos individualizmidan darak beradi. Ular doston taʼsirchanligini oshiradi, kitobxonda qiziqish uygʻotadi, baʼzi bir iboralar oʻquvchini oʻylashga, mushohada qilishga majbur qiladi, toʻgʻri xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Bob boʻyicha qisqa xulosalar

1. Abdulla Oripov dostonlarining leksik poetikasi davr ruhiga mos ravishda oʻziga xos yangilanish davrini boshlab berdi. Bu davr yozma dostonlari tilida qoʻllanilgan soʻzlar oʻzlarining rang-barang maʼno jilolari bilan ramziy, mantiqiy, falsafiy, tarixiy, tanqidiy fikr ifodalash, jamiyat hayotidagi muammolarni, ozodlik, mustaqillik, erk tuygʻularini, milliy ruh va kayfiyatni aks ettiruvchi omil boʻldi. Soʻzlarning yangi maʼnolari asosida ruhiy tozarish, oʻz milliy tarixini anglash, milliy oʻzlikka intilish, diniy va milliy qadriyatlarimizni tiklash, sevgi va sadoqatni, ezgulikni ulugʻlash, inson ichki ruhiy olami, uning erki, ozodligi uchun kurash tasvirlari yaratildi. Ushbu vazifani dostonlarda qoʻllangan har bir soʻz oʻz imkoniyatlari darajasida aks ettirdi.

2. Tazod sheʼriy sanʼati badiiy ifoda unsurlaridan biri sifatida bevosita voqelikni ichki ziddiyat bilan ochishga xizmat qiluvchi vosita vazifasini oʻtaydi va dostonda aks etayotgan obraz, voqelik yoki hodisalarning taʼsirchanligini, badiiy, estetik qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Shu kabi kontekstual sinonimlar Abdulla Oripov dostonlarining estetik qimmatida muhim oʻrin tutadi. Mustaqillik davrida yaratilgan dostonlarda qoʻllanilgan salbiy xususiyatlarni ifodalovchi sinonimlar ham oʻziga xos ahamiyatga ega ekanligini eʼtirof etish mumkin. Bunday salbiy xaraktyerdagi, mazmunan bir-biriga yaqin

soʻzlar yordamida, ijodkor dostonning asosiy gʻoyasi, mazmun-mohiyatini, shaxs yoki obrazning xarakteridagi kamchiliklari, salbiy xususiyatlarini ochib berish, voqea va hodisalarni roʻyi-rost aks ettirish orqali yoritib berishga erishadi.

3. Abdulla Oripov dostonlaida qoʻllanilgan tarixiy soʻzlar birinchi galda davr ruhini toʻlaligicha ochib berishga xizmat qilish bilan birga soʻzlardagi oʻz maʼno hamda tagmaʼnolarni chuqur mazmun bilan boyitadi. Ifodaga oʻzgacha ruh va tantanavorlik bagʻishlaydi, uning badiiy estetik qimmatini oshiradi, ohangdorlik va musiqiylik baxsh etadi.

4. Abdulla Oripov dostonlari vatanparvarlik, faxr, oʻzlikni anglash, gumanistik gʻoyalar bilan sugʻorilgan boʻlib, ushbu gʻoyalarni ifodalashda ijodkorlar tomonidan xalq maqol, ibora va matallaridan oʻziga xos uslubda foydalanilgan. Ijodkorlarning xalq maqol va matallariga ijodiy yondoshishi dostonlarning maʼno koʻlamini kengaytirish bilan birga tayyor maqol va matallarga yangicha koʻrinish va mazmun bagʻishladi.

III BOB. ABDULLA ORIPOV DOSTONLARIDA QO‘LLANILGAN KO‘CHIMLARNING LINGVOPOETIK TADQIQI

3.1. So‘zlarning semantik qurilishidagi o‘zgarishlar

Badiiy ifodada til ekspressivlikni ifodalovchi o‘ziga xos kuchli qurol hisoblanadi. Shunday ekan, badiiy nutqning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan ekspressivlik, badiiy tasvir vositalarida yorqinroq, go‘zalroq yuzaga chiqadi va obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Badiiy vositalar muayyan bir aytilgan fikrlar bilangina cheklanib qolmaydi. Ular har bir iste’dodli yozuvchi yoki Shoir tomonidan boyitib boriladi. Yangi adabiy avlodlar ularni yangilaydilar va mukammallashtiradilar. Har bir adabiy tur (epos, lirika, drama) va janrda badiiy vositalar o‘ziga xos rol o‘ynaydi. Masalan, satira va yumorda mubolag‘a boshqa tur va janrlarga nisbatan ayricha ahamiyat kasb etadi. Poetik asarlarda esa intonatsion vositalar alohida o‘rin egallaydi. Umuman, poeziya va unga yaqin bo‘lgan liro-epik asar tili ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Abdulla Oripov dostonlarida qo‘llaniladigan badiiy tasvir vositalarining lingvistik aspektida tadqiq etilishi esa lingvopoetika sohasi doirasiga kiradi. Lingvopoetika badiiy nutqning estetik qimmatini belgilovchisidir. Badiiy nutq o‘z o‘rnida tasviriy vositalar bilan mukammal va to‘kisdir. Har qanday badiiy asarning “badiiylik belgisi o‘xshatish, sifatlash, metofora, jonlantirish kabi tasviriy vositalar orqali ifodalanadi”.¹ Ushbu bobda mazkur vositalarning Abdulla Oripov dostonlaridagi in’ikosi xususida fikr yuritiladi.

Mumtoz adabiyotda bu tushuncha “istiora” termini bilan atalgan bo‘lib, Abdulla Oripov dostonlarida ham rang-barang ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Metafora. Metaforalar qo‘llanishiga ko‘ra badiiy vositalarning eng qadimiysi hisoblanadi. Metaforalar haqida Arastuning “Poetika”sida ilk ma’lumotlar mavjud. Ular badiiy asarning ekspressivligini, tasviriylik va obrazlilik darajasini belgilovchi muhim omil sanaladi. Metaforalar predmet va

¹Mukarramov M.O‘zbek tilida o‘xshatish.T.,Fan,1976.-B.5.

hodisalarni, ularga xos xususiyatni qiyoslash haqida o‘xshatish natijasida yuzaga keluvchi so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslangan nutqiy ekspressiyadir. Unga adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid tadqiqotlarda “qisqartirilgan qiyos”,¹ “belgilar qiyoslanishining tugallangan formasi”,² “o‘xshashli ko‘chim”,³ “o‘ta kuchli zakovat ifodasi”⁴ kabi ta’riflar beriladi.

“Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish metaforadir.”⁵

Metaforani sistem o‘rgangan olim G.Qobuljonova uning asosi, mohiyatan, ikki xil ekanligini ko‘rsatadi:

1. Nomsiz narsani nomlash.
2. Nomli narsaga qayta nom berish. (ikkinchi nom)

Birinchi holat – lisoniy, ikkinchi holat esa nutqiy metaforani yuzaga keltiradi.⁶

Metaforalar aslida nomi yo‘q bo‘lgan narsa-tasavvurlarni nomlash, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog‘liq emas, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o‘chlikdan, bir aloqadorlikni, nomi bor narsalarni ham metaforik yo‘l bilan qayta nomlashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligidan yuzaga keladi.⁷ Darhaqiqat, metaforalar trop turlari orasida eng xarakterli, emotsional-ekspressivlikni ifodalashda sermahsul ifoda vositalaridan bo‘lib, u ijodkorning mahorati va kuchli zakovati natijasida namoyon bo‘ladi. Shuning bilan birgalikda unga leksik ma’no taraqqiyotini ko‘rsatuvchi til hodisasi sifatida ham qaraladi. Ya’ni lingvistik metaforalar (“yazikovaya metafora”)⁸ tilning

¹Потебня А.А. Из записок теории словесности. Харьков. 1995.-Б.26.

²Белый А. Символизм. Мусaget, 1910.-Б.78.

³Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati. T..1967.-B.110.

⁴Литературная газета. 1965.4-ноябрь.

⁵Qo‘ng‘urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., O‘qituvchi, 1992. - B. 97.

⁶Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol. fan. nomzodi...diss. avtoref. - T., 2000. - B. 10.

⁷Қаранг: Паул Г. Принципы истории языка. - М.:Издательства иностранной литературы. 1968. – С.144.

⁸Черкасова Е.Т. Опыт лингвистической интерпретации тропов, “В.Я”. 1968.-№2.-С.29.

lugʻat tarkibini boyitishga xizmat qilsa, nutqqa xos badiiy metaforalar (“ne yazыkovaya”, “poeticheskaya”, “individualno-avtorskaya”)¹ emotsional-ekspressivlik, poetizmni yaratishda muhim vosita sanaladi. Shu tariqa, xususiy-muallif metaforalari, koʻproq estetik maqsad, yaʼni borliqni subʼektiv munosabat bilan uygʻun ifodalagan holdagi nomlash asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ularda hamisha konnotativ, yaʼni koʻchma maʼno mavjud boʻladi.

Abdulla Oripov adabiyot, sheʼriyat haqida gapira turib shunday deydi: “Adabiyot, sheʼriyat obrazlilik bilan tirikdir. Sheʼriyatda samimiyat ham boʻlishi kerak. Shundagina u bir umr esda qoladi” (IV, 54 -bet). Demak, Shoir sheʼriyat oldiga ikkita asosiy talabni qoʻyadi: obrazlilik va samimiylik. Shubhasiz, gʻoyat toʻgʻri talablar. Lekin Shunisi borki, ularning birinchisi poeziyaning tabiati bilan, ikkinchisi esa ijodkor shaxs – shoir tabiati bilan bogʻliqdir. Albatta, samimiyat juda zarur, lekin obrazlilik birlamchi ekanligi shubhasiz. Adabiyot ilmi badiiy obraz poeziyaning voqelikni badiiy-estetik inʼikos qilishida eng asosiy, birlamchi vosita ekanligini beshak haqiqat deya eʼtirof etadi. Zero, soʻz sanʼati insonning ichki olamini ham, undan tashqaridagi olamni ham badiiy obraz vositasida idrok etib, ularga estetik ideal nuqtai nazaridan munosabatda boʻlgan holda umumlashtiradi va konkret his etiladigan tarzda aks ettiradi. Yaʼni badiiy obraz sanʼatdagi ham tafakkur, ham ifoda shaklidirki, Shuning uchun obrazlilik sanʼatning belgilovchi xususiyati sanaladi.

Estetika va adabiyotshunoslikka oid ishlarda badiiy obrazning materiali bir tomondan real voqelik, ikkinchi tomondan ijodkor shaxsi ekanligi taʼkidlanadi². Agar metafora (hatto uning eng oddiy koʻchim darajasidagi koʻrinishi ham) obraz ekanligini eʼtiborda tutsak, bu gap unga ham toʻla tegishli degan xulosa kelib chiqadi. Aslida, buni Arastu yaxshi metafora yarata olish,

¹Черкасова Е.Т. Оʻsha joyda.

² Боров Ю. Эстетика.- М.,1987.- С.144-146: Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Т., 2007.- В.65

o'xshashlikni ko'ra olish iste'dodning belgisi deb hisoblaganidayoq e'tirof etgan. Chunki o'xshashlik voqelikda mavjud bo'lsa, uni ko'ra olish ijodkor shaxsi bilan bog'liq, yaxshi metafora esa shu ikkisining birligida yaratiladi. Arastu metafora yaratishni o'zgalardan o'rganib, o'zlashtirib bo'lmasligini, ya'ni buning tug'ma qobiliyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Demak, metafora (umuman obraz) yarata olish uchun kishi alohida sifatlarga ega bo'lishi lozim. Xo'sh, bu qanday sifatlari? Bizningcha, ushbu savolga javobni boshlab Abdulla Oripovning o'zidan izlash kerak.

A.Oripov yozuvchi Sh.Bo'taev bilan suhbatida bunday deydi: "Tevarak atrofdagi narsalarga – daraxtlarga, gullarga, giyohlarga hammaning ham nigohi tushadi. Siz ko'rgan-bilgan voqea-hodisalardan yoningizdagi o'rtog'ingiz ham voqif bo'ladi. Biroq, ulardan ta'sirlanish har xil. Birov yiqilgan daraxtga ko'zyoshsiz qaray olmasa, birov odamni bo'g'izlashsa ham loqaydgina kuzatadi..." Ko'ryapmizki, bu yerda gap san'atkor uchun eng muhim sifat – ta'sirlanish haqida boryapti va uni ijodga turtki beruvchi ilk omil sanash kerak. Albatta, shoir to'g'ri ta'kidlayotganidek, ta'sirlanish darajasi har kimda har xil. Shu bilan birga, ta'sirlanish bilan ta'sirchanlikni ham farqlash kerak. Ta'sirchanlik ko'pchilikka xos, lekin hammada ham tashqi olamdan olingan taassurot badiiy mushohadaga etaklamay, boshqa yo'llar bilan (yig'lab-siqdash, g'amga cho'kish, quvonish va hokazo) qondiriladi. Aksincha, taassurot ijodkorning qalbini hislarga to'ldiradi, ularni badiiy mushohada kuchi bilan idrok etish va ifodalash ehtiyojini tug'diradi. Yana A.Oripovning o'ziga murojaat etamiz: "Men negaligini o'zim ham bilmagan holda to'kilayotgan yaproqlarga, yulduzlarga boqib xo'rsingan vaqtlarim bo'lgan... Nimalarnidir aytgim, to'lib turgan yuragimni qog'ozga tushirgim kelardi..."

A.Oripovning yigitlik davrida yozgan "Kuz xayollari" she'rida mana bu misralar bor:

Bir hikmat o'qiyman hazonlarda men:

“Yashagin-u, biroq yaproq bo'lma sen” (I,27) .

Menimcha, mazkur misralarda shoir ning badiiy tafakkur tarziga xos juda muhim xususiyat o'z ifodasini topgan. A.Oripovning ilk ijodi bilan tanishgan kishi unda chor-atrofiga shoir ona o'tkir nigoh bilan boqib, undan hikmat uqayotgan lirik qahramonga qayta-qayta duch keladi. Shoir tabiat bilan inson, uning o'y-hislari, quvonch-tashvishlari, kayfiyati orasida o'xshashliklar topadi va shu o'xshashliklar yordamida dilidagini izhor qilishga intiladi. Hech shubhasiz, bu yosh shoir ga berilgan ulkan iqtidordan nishona edi. Zero, Shoir ilk mashqlaridanoq oddiygina izhor emas, poetik izhorga, obrazli ifodaga harakat qiladiki, xuddi shu narsa uning fitratida san'atkor yashayotganidan darak bergan va, balki, ko'pchilikda iste'dodning porloq kelajagiga umid uyg'otgan asosiy omildir.

Iste'dodning kamolida muhitning nechog'li katta ahamiyatga egaligi ma'lum. Albatta, bo'lg'usi shoir oilasida hukm surgan adabiyotga alohida bir mehr (I,7) uning ijodkor sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgani ham shubhasiz. Lekin, bizningcha, A.Oripovning biz bilgan ulkan so'z san'atkori bo'lib etishishida tug'ma iste'dodi bilan birga bolaligi o'tgan joylar tabiatining ham ulkan xizmati bor. Shoir tarjimai holida shunday deb yozadi: “... bahor paytlarida bu erlarga yog'in ko'p tushar, Qo'ng'irtov etaklari ming xil o't-o'lan, chuchmomayu qizg'aldoqlar bilan, quyonto'pig'u ismaloq bilan, karragu hazoriisfand bilan, qo'zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatliy bir manzara kasb etardi ... O'sha Qo'ng'irtovda bizning bolalik yillarimiz o'tgan. Bahor kelganda havoni o't-o'lanning yoqimli xushbo'y hidi qoplar, sharros yomg'ir quyganda biz tog' cho'qqisi unguridagi kichik-kichik g'orlarga bekinib olardik. O'sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, to'yib-to'yib nafas olardim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari,

yulduzli osmon nihoyatda go‘zal bo‘lar edi. Tim qora osmonda qo‘l cho‘zsang etgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go‘zal manzaralarni keyin uchrata olmadim”.¹

Xuddi shu metaforalar matnda birikkan holda shoir bo‘lishni diliga tugib katta hayotga qadam qo‘yishga chog‘langan o‘smir orzu-niyatlarini ifoda etadi. Mana bu misralarda esa bu orzu-niyatlar balandroq pardada ifodalanadi:

Deyman: osmonlarning hiloli bo‘lsam,

Xulkar va Zuhrosi bo‘lgim keladi.

Shu go‘zal o‘lkamda kamolga to‘lsam,

Porloq yulduzlarday kulgim keladi.²

Diqqat qilinsa, she’rda ko‘chim darajasidagi metaforalar obraz darajasidagi metaforani yuzaga chiqargani va yulduzli osmon obrazi endi metaforik tarzda she’riyat ma’nosini anglata boshlaganini sezish qiyin emas. Eng muhimi, katta yo‘lga chiqishga chog‘langan yosh Shoir dilidagi orzu-umidlar, ertangi kunga nekbin nazar, iste’dod kuchiga ishonch kabi o‘y-hislar tabiatga proeksiya qilingan tarzda, obrazli qilib ifoda etiladi. Yana bitta ta’kidlash zarur bo‘lgan nuqta shuki, mazkur ma’nolarning reallashuviga bitta metafora – yulduzlar chamani ichra milt-milt yonayotgan jajji dil so‘zi asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni shu metafora she’rda aks etgan kechinma-kayfiyatni yuqoridagicha tuShunish imkonini beradi. Shu bilan birga, she’rdagi metaforik obrazni bunday tuShunishga izn beruvchi boshqa asoslar ham bor.

Tabiatni jonlantirish, unga insonga xos sifatlarni baxsh etish asosidagi metaforalarning ildizlari, yuqorida aytilganidek, juda qadim zamonlardan suv ichadi. A.Oripovga xos poetik tafakkur, uslubning o‘ziga xosligi, bizningcha,

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.6

² Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.15.

eng avval shu jihat bilan xarakterlanadi. Ya'ni umuman poeziyaga xos bu xususiyat A.Oripov ijodida ustuvorlik qiladiki, buning sababi Shoir ning bolaligi ona tabiat bag'rida o'tgani, u bilan bevosita va tig'iz muloqotda bo'lganidadir. Shoir ning o'zi ham ko'plab adabiy tanqidiy va publitsistik chiqishlarida, suhbatlarida buni qayta-qayta takidlaydi. Jumladan, qirqdan o'tib, bolalik sog'inchi kuchaya boshlagan bir pallada A.Oripov bunday deydi: "Bola ko'zlari hamma narsaga hayrat va qiziqish bilan boqadi. U mahal yulduzlar o'zgacha yonadi. Daraxtlar boshqacha bo'ladi. Tog'lar yanada baland, ulug'vor, osmon yanada keng, beg'ubor, daryolar jo'shqin, shiddatli..." (I,96) Ma'lumki, shaxsning fe'l-atvori, sajiyasi bolalikdan boshlab shakllanadi, ya'ni bolalik shaxsning o'ziga xos poydevoridir. Shu o'rinda "uslub – shaxs" degan qarashni esga olsaq, A.Oripov uslubidagi yuqorida aytilgan o'ziga xoslik tabiat qo'ynida o'tgan bolalikning hosilasi ekani ma'lum bo'ladi. Zero, bolalik davri boshqacha, masalan, qaynoq shahar hayoti ichida kechgan Shoir ning uslubida bunaqa hol kuzatilmisligi, tabiat uning uchun metafora (umuman obraz)ning asosiy manbai bo'lmasligi ham tabiiydir.

A.Oripov so'z bilan chizgan tabiat manzaralarida lirik kayfiyat muhrlanadi, ularda ob'ektiv tasvirdan ko'ra sub'ektiv tasvir – voqelikni ko'ngildan o'tkazib berish ustuvor. Shuning uchun ham Shoir she'rda tilga olganki narsa bo'lsa, uning uchun katta emotsional qiymat kasb etadi: o'y-hislariga yo'g'riladi, ularga turtki beradi. Bu esa she'rning emotsional tonalligini, lirik qahramon ko'nglida kechayotgan jarayon, undagi burilish va evrilishlarni ifoda etishda juda muhimdir. Jumladan, "Bahor" she'rining boshlanish qismi yo'g'rilgan ko'tarinki shodumonlik ruhi keyin, ya'ni tabiatdagi uyg'onish, jonlanishga batamom befarq, "manguga ko'z yumgan"lar eslanganda o'zgaradi:

Azaliy hukmini o'qidi hayot, –

Necha bor samo ham ko‘mdiq quyoshin.

Iqboli sajdagoh bo‘lganlar, hayhot,

O‘zlari tuproqqa qo‘ydilar boshin.¹

Ushbu parchada metaforiklik tematik parallelizm orqali yuzaga chiqadi: samo har kun quyoshini ko‘mgani kabi insonning ham yaqinlarini bir-bir erga berishi – hayotning azaliy qonuni. Shoir buni biladi, lekin yo‘qotish armonlari hali ohorli, ular dilni vayron etadi. SHE’rda emotsionallik o‘zgarib, armondan alamga, undan isyonga aylanib boradi. Emotsional bo‘yoqlarning o‘zgarishiga monand metaforalar ham shunga mos o‘zgarib boradi va bu narsa his-tuyg‘ular ifodasida qancha muhim bo‘lsa, o‘quvchining hissiy idrok etishida ham shunchalik ahamiyatga egadir.

Yuqorida keltirilgan misollar va ularning tahlili ko‘rsatyaptiki,

A.Oripov she’riyatida tabiat metaforik tafakkurga turtki beruvchi kuch, obrazli ifoda va metaforik obrazlarga xom ashyo beruvchi tunganmas manba bo‘lib xizmat qiladi. Shoir uslubining o‘ziga xos bu xususiyati shaxs sifatida shakllanishining muhim bosqichlari – bolalik va o‘smirlik yillari tabiat bilan uyg‘unlikda, bevosita va jonli muloqotda kechgani bilan izohlanadi.

A.Oripov biz yuqorida ham murojaat etgan suhbatida shunday deydi: “Tabiat ona bo‘lsa, jamiyat otadir! Katta ma’nodagi kurashlar, dolg‘alar kishini tabiatning qo‘ynidan olib kelib, jamiyat orasiga tashlaydi”. Odam tabiatning qo‘ynida-ku, tabiatdek sof, musaffo edi. U jamiyat orasida o‘zini qanday tutadi? Endi u birdaniga “katta odam” bo‘lib bolaligini unutadimi?! Ko‘pincha shunday bo‘ladi” (I,96). Shoir ning afsus chekishi bekorga emas, bolalikdagi soflikni to‘la saqlab qolish bandaning qo‘lidan kelmasligini u yaxshi biladi. Holbuki, kishi ma’naviyati o‘sha soflikni qay darajada saqlab qololgani bilan belgilanadi.

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.122.

A.Oripov lirik merosi bilan tanishganda, uning ijod onlari o‘sha soflikka bot-bot qaytib qalam tebratganiga amin bo‘ladi kishi. Biroq bu faqat ijodning ilohiy onlarida, faqat ruhan sodir bo‘ladi. Endi Shoir ning o‘zi “inoq edim men aslim – tabiat bilan” (I,236) deb ta’riflagan yoshlikning musaffo paytlariga butkul qaytish imkonsiz. Endi she’rlaridagi tabiat bilan birlik hissi va uning go‘zalligidan tug‘iluvchi zavq, yoshlik shavqi, ishq sururiyu hijron azoblari o‘rnini ijtimoiy dard egallaydi. Tabiiyki, she’rlarida inson qismati, fe’l-atvorining manzaralari, ijtimoiy munosabatlaridagi norasoliklar, xalqining o‘tmishi va buguni, istiqboli qayg‘usi, bashariyat taqdiri kabi masalalardan bahs etayotgan Shoir metaforaning ham shunga moslarini qidiradi.

Shu o‘rinda “metafora qidiradi” deganimiz unchalik ma’qul emas ko‘rinadi. Zotan, Shoir metafora qidirmaydi, balki uni yaratadi. Demak, Shoir metafora emas, balki metafora uchun asos – o‘xshashliklar qidiradi deb aytsak to‘g‘riroq bo‘ladi. Agar Shoir ijodining ilk bosqichida ichki olami bilan tashqi olam (tabiat) orasidagi o‘xshashliklarga tayangan bo‘lsa, hayotga chuqurroq kirib borgani sari o‘xshashliklar doirasi ham kengayib boradi. Zero, borliqda mohiyatan bir-biriga o‘xshash nuqtalar “o‘tmish – hozir”, “tabiat – jamiyat”, “inson – nabotot”, “inson – hayvonot”, “inson – hodisa” kabi sanoqsiz juftliklarning hammasidan ham topilaverishi mumkin. Masalan, G‘.G‘ulom vafotining bir yilligi munosabati bilan yozilgan “Nutq” she’rida mana bunday misralar bor:

Bu asrdan mangulikka yorliq olmoqqa

Etmas ekan faqatgina she’riy iste’dod.¹

Ma’lumki, jamiyatda muayyan bir holatni tasdiqlash uchun tegishli tartibda hujjat – “yorliq olish” zarur. Albatta, buning uchun kishidan “yorliq” bilan tasdiqlanayotgan holat talablariga muvofiqlik talab etiladi. Jamiyat

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.135.

hayotidagi ushbu tartib ko'chma ma'noda "G'afur G'ulom mangu yashaydi" degan fikrni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, Shoir bu yorliqni shiddatli XX asrdan oldi, uning talablari esa ulkan, Shoir lik iste'dodining o'zi etarli emas. Demak, metafora bu yerda tavsiflanayotgan ob'ektning ahamiyatini to'laqonli ochib berish uchun xizmat qiladi. Shunga o'xshash, muallimlarga bag'ishlangan she'rda mana bunday ta'rif bor:

Siz mo'jaz yurakda yoqolgan yog'du

Oqibat quyoshdek socha olur nur.¹

Bu misralarda o'qituvchi mehnatining mohiyati va mahsuli metafora yordamida go'zal ifoda etilgan. Albatta, bu yerda metaforik ma'no milliy mentalitetimizga singib ketgan "bilim – yorug'lik", "olim – quyosh" kabi bazis metaforalarga asoslanadi. Tabiiyki, o'xshashliklarni topishning o'zi pirovard maqsad emas, ular dildagini ifodalashga xizmat qilsagina o'zini oqlaydi. Inchunun, ayrim hollarda dildagini ifodalash faqat metafora orqaligina mumkin bo'ladi.

Ayni chog'da, chinakam iste'dod taqlid doirasida qololmaydi, aksincha, ilk qadamlardan o'zini namoyon etishga intiladi. Shuning uchun ham ilk she'rlardayoq Shoir san'atkorona nigoh bilan ko'rganlarini o'ziga xos tarzda ifodalashga intilayotgani, izlanayotgani ko'rinadi, bunga yuqorida amin bo'ldik. Ikkinchi tomondan, hech bir iste'dod, darajasidan qat'i nazar, boy milliy adabiyot an'analarini istifoda etmay, ularni o'zlashtirmay qolmaydi. Zotan, an'analar iste'dod niholining gurkirab rivojlanishi uchun unumli tuproqdir, tomirlari ulardan suv ichmagan nihol milliy adabiyot zaminida tomir otolmaydi. Nihoyat, iste'dodli yosh an'analarni ko'r-ko'rona emas, balki ijodiy o'zlashtiradi, salaflari bilan ijodiy musobaqa qiladi. Ya'ni taqlid o'z holicha emas, balki ijodiy musobaqa sifatida kechganidagina ijodkorning o'z yo'lini

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.240.

ochishga yordam bera oladi. Yana bir tomoni shuki, salaflar bilan musobaqa faqat ijodkor faoliyatning ilk bosqichida emas, keyingi bosqichlarida ham davom qiladi. Zotan, xuddi shu davomiylik poetik til an'alarining boyishi, sayqallanishining bosh omilidir.

A.Oripov she'riyatdagi salaflariga, milliy adabiyot an'alariga yuksak hurmat, ehtirom bilan qaraydi. Shoirning ustozlarga bag'ishlangan qator she'rlari, matbuotda e'lon qilingan maqola va suhbatlari, so'zlagan nutqlarida bayon qilgan fikrlari buni yaqqol ko'rsatadi. Shunday xolis va halol munosabatgina shoirga ijodda o'zini ustozlar davomchisi, milliy adabiyotimizning muxtor vakili sifatida namoyon etishga ma'naviy huquq va imkon beradi. Yaxshi ma'lumki, mumtoz she'riyatda "kamon", "o'q" kabi aslahalar orqali turli qiyoslar (masalan: kamon – qosh; o'q – kiprik) qilingan, ular istiora san'ati uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, Shoirlarimiz arab alifbosidagi harflar shaklidan ham ko'pincha o'xshatish asosi sifatida foydalanganlar.

Kuzatishlar va tahlillar ko'rsatdiki, A.Oripov she'riyatida metaforaga material beruvchi manbalar g'oyat keng va boydir. Ushbu faslda Shoir qo'llagan metaforalarning xom ashyo manbai sifatida ona tabiat, jamiyat va milliy adabiy an'analarnigina muxtasar ko'rib chiqa oldik. Holbuki, bulardan boshqa Shoir metaforalari yana milliy turmush tarzi, xalqning urf-odatlari, ishonch-e'tiqodlari, folklor, jahon adabiyoti an'analari kabi manbalardan ham oziqlanadi. Metafora (umuman obraz) yaratish uchun murojaat etayotgan manbalar nihoyatda boyligi shoir ijodida metaforik (obrazli) tafakkur teranligi, metaforalarning rang-barangligini ta'minlovchi asosiy omildir.

Metonimiya. Badiiy asar tilida har bir trop yoki ko'chimning o'ziga xos o'rni hamda ma'no jilosi bo'lgani kabi, poetik nuqda, metonimiya va sinekdoxa ham estetik kategoriyalar sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. Poeziyada, umuman,

poetik asarlarda ular ifoda ta'sirchanligini oshiribgina qolmay, balki poetik asarning ruhiyati, tabiiy olami va ohangdorligiga, ya'ni ritmiga mos ifodaning yaratilishida asosiy omil bo'la oladi. Ushbu tasvir vositalari ham metafora singari leksemalarning kognitiv ma'nosiga asoslangan. Biroq, metonimiyada ko'chma ma'noning bo'lishi bilan birga, unda o'xshashli ko'chimdan predmet yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshatish emas, balki ular o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik, bir-birini taqazo etishi asos qilib olinadi. Demak, metonimiyada, asosan, biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro uzviy bog'langan bo'ladi.

Amir Husayn, oramizni bog'lagan zanjir

Metin tog'lar silsilasi qadar bo'lsa ham,

Shu daqiqa parokanda bo'ldi, uzildi.

Metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning o'zaro belgi xususiyatlari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi (shakl) yoki ichki xususiyatlari (mazmun, mohiyati) bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari bilan solishtiriladi, ya'ni metafora o'xshashlikni, metonimiya esa bog'liqlikni nazarda tutadi.

Sinekdoxa. Butun o'rnida qism yoki qism o'rnida butunning, ba'zida esa birlikning ko'plik o'rnida qo'llanishiga sinekdoxa deyiladi.

Yetar, tushundim!..

Sizga ruxsat.

Ko'nglingizni cho'ktirmang, ammo

***Bir barmogim** lat yebdi-yu, bilmayman, afsus.*

Yuqoridagi misralarda shoir "bir barmog'im" birikmasi orqali farzand ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni qism orqali butun ifodalagan.

Yozma dostonlar tilida tasviriy vositalar muhim ahamiyatga ega. Ular doston g'oyasini, maqsadi va mohiyatini ochib berishda muhim manba hisoblanadi va o'z zmmasiga bir necha vazifalarni oladi:

1. Yorqin va tiniq, obrazli va jonli, tarixiy va badiiy tasvir yaratib, inson ruhiy olamini, uning ichki hissiyoti, tuyg'ulari va dardlarini kashf qiladi. Bunda tasvir etilayotgan ob'ekt ruhiyati va qahramonning holat, kayfiyati uyg'unlikda o'z aksini topadi. Milliy ruh, majoziy fikr ifodalaydi, ayniqsa, jonlantirishda ob'ekt nutq qobiliyatiga ega bo'lsa, bu hodisa yaqqolroq namoyon bo'ladi. Nutqning badiiyligini, obrazlilikini ta'minlaydi, leksemalarning serqirra ma'no jilolarini kashf etadi.

2.A.Oripov dostonlarida jonlantirishning milliy ruh bilan sug'orilgan o'ziga xos original namunalari kashf etildi.

3. Ayniqsa, sifatlashlarning inson ruhiyati, tuyg'ular kurashi bilan e'tiborli namunalari yaratildi. Butun asar davomida mavzuni yorqin ochib beruvchi sifatlashlarning ketma-ket kelishi yoki epitetlarning uyushib kelishi orqali obrazli badiiy tasvirlar yaratildi. Asosan, A. Oripov dostonlarida o'xshatishning ko'plab original go'zal namunalari shakllandi. Bu o'xshatishlarning aksariyati poklik, ezgulik, mehr, vafo, oqibat, sadoqat, mardlik, mustaqillik, erk bilan bog'liq bo'lib, o'ziga xos yorqin tasvirlar yaratishga xizmat qiladi.

4. Metaforalarning mavzuga aloqador, ijtimoiy muhit ruhiyatini aks ettiruvchi go'zal va betakror namunalari ijodkor poetik mahorati va uslubidan kelib chiqqan holda rang-baranglik va o'ziga xoslik kashf etdi. Bu davr dostonlarida metafora va metaforik tasvirlarning o'ziga xosligi ijtimoiy muhit bilan aloqador bo'lib, badiiy tasvirning bu ko'hna usuli haqqoniy fikr ifodalovchi asosiy omilga aylandi.

Abdulla Oripov dostonlarining o'ziga xos jihatlaridan biri uning ijtimoiy birlik, yakdillik, o'zlik, o'zlikdagi yagonalik, bir maqsad, bir so'z, bir dillikni targ'ib va talqin etishidir. Shuning uchun ham yozma dostonlarda

sinekdoxaning shaxs a'zolari tuyg'ulariga nisbatan ko'plik orqali birlikni ifodalash holati kam namoyon bo'lgan. Ushbu davr dostonlarida metonimiya va sinekdoxa hodisasini kamroq uchratamiz. Bunda, asosan, sinekdoxa kabi metonimiya ham, birlik, yakdillikni badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

3.2. Dostonlar tilida asosiy ko'chimlar

Epitet. Epitet-sifatlash tasviriy vositalarning xarakterli ko'rinishi bo'lib, u voqelik, tuyg'u va predmetning o'ziga xos tomonlarini (xosligini)aniqlab, ta'kidlab, ajratib, bo'rttirib ko'rsatadi. Ushbu xususiyati bilan "sifatlash badiiy aniqlovchi"¹ sanaladi.

"Sifatlashlar she'riy misralarda misoli yo'l ko'rsatkichlar kabi"²dir. Original sifatlashlar asar g'oyasi, qimmatini belgilashda juda zarur va ahamiyatlidir. "Shoirona ehtiros va did bilan topilgan epitet poetik obraz elementi sifatida, asosan, she'r g'oyasini ochib berishga, so'ngra shoir shaxsi, uning olami, ijodiy individualligi haqida ma'lum tasavvur tug'dirishga qodir bo'ladi. Bunday epitetga qarab ko'p narsani – shoirning g'oyaviy pozitsiyasini, estetik qarashlarini, iste'dodini va she'riy uquvini, emotsional va intellektual iqtidorini tadqiq qilsa bo'ladi".³

MusA. Oripov dostonlarida ham sifatlashlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligi kuzatiladi.

Quyidagi ifodada *beg'ubor bolalik* o'tgan dalalar, ona qishloqning yaylov qirlari, bolalarning milliy o'yini "*chillak dasta*", yozgi tabiat go'zalliklari, poliz ekinlari ijodkorning mohirona so'z marjonini terishi orqali milliy ruhda gavdalanadi. Bu yerda o'rinli qo'llanilgan "*zangori osmon*" epiteti ifodani yanada *yoqimliroq va go'zalroq* bo'lishiga xizmat qilyapti. Bunda "*zangor*" leksemasining *och yashil, yashilsifat* semasiga, ya'ni *zangor libosga burkangan bahor havosining ochiqligi, sho'xchan bolalarning ruhiy kayfiyatlari* bilan uyg'unlashib, o'ziga xos go'zal, betakror manzara kashf etadi.

¹Шарафиддинов О.Замон.Қалб.Поэзия.Т.,Ўзадабийнашр,1962.-Б.196.

²Озеров Л.Мастерство и волшебство.М.,1972.-Б.354.

³Акрамов Б.Шеърият гавҳари.Т.,Адабиёт ва санъат нашриёти,1979.-Б.21.

*Otani boladan tirik ayirib
Toju taxt taloshi qizirkan barho.
Sulton ne zotlarning qo‘lin qayirib,
Muhtasham saltanat aylamish barpo.¹*

Ushbu ifodadagi “*muxtasham saltanat*” sifatlashi dostonga ulug‘vorlik bag‘ishlaydi. Bunda “*muhtasham*” leksemasining *ulug‘vorlik* semasi yuzaga chiqadi. Ifodada ijodkor uzoq o‘tmishga murojaat qiladi, Markaziy Osiyodagi amirlik va xonliklarlar o‘rtasidagi taxt uchun bo‘lgan jang manzaralari, Turkiston zaminiga ko‘z olaytirgan olchoq kimsalar va shum urushga nuqta qo‘ya olgan, O‘rta Osiyoni mustamlakachilik zulmidan ozod qilgan zot - Amir Temurga nibatan “*sulton*” so‘zini o‘rinli qo‘llaydi. Bu sifatlash orqali Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin Amir Temur shaxsiga, faoliyatiga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga yuz burganini e’tirof etish mumkin bo‘ladi. Bunda yana Amir Temurning nafaqat buyuk sarkarda, buyuk davlat arbobi ekanligi, balki buyuk bunyodkorlik salohiyati ham e’tirof etiladi.

Quyidagi misralarda ham ana shunday sifatlashlarning guvohi bo‘lamiz.

*Hukmi oliy bilan etmish namoyon
“Kuch bu adolatda”, degan so‘zlarin.
Qon to‘kmish Jahongir goho beomon
Yovlari tikmasdan qonli ko‘zlarin.²*

Bu yerda ham qator “*hukmi oliy*”, “*qonli ko‘zlarin*” sifatlashlarini o‘rinli qo‘llash bilan ma’no kuchayishiga va dostonning estetik qimmatini oshirishga erishadi. “*Jahongir*” nomemasi ham o‘rinli qo‘llanilib, Amir Temur shaxsini ulug‘lash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur shaxsini oqlash, ulug‘lash maqsadida ijodkor quyidagi misralarda sifatlashdan unumli foydalanadi va ushbu ifoda orqali ijodkor o‘z maqsadini amalga oshiradi:

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.387,389..

² Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

*Jahonni mo‘g‘ullar istilosidan
Qutqarib qololgan barlosiy botir-
Qocholmay taqdirning taqazosidan
Fotih deb nom olmish o‘zi ham oxir.¹*

Zukko shoir Amir Temurga nisbatan “*barlosiy botir*” sifatlashini qo‘llaydi va Amir Temurning *barlos* qavmidan ekanligiga ishora qiladi.

Ushbu satrlar ham mustaqillik sharofati ila Amir Temur shaxsi va faoliyatiga to‘g‘ri va xolisona baho berish uchun xizmat qiladi. Bu yerda buyuk shaxsga nisbatan faxr tuyg‘usini tuyamiz.

*Eng ulug‘ binolar mujassam bo‘lmish
Olamda tengi yo‘q Samarqand-ku bor:
Temurbek jang- jadal shavqiga to‘lmish,
Qo‘lida shamshiru tagida tulpor.²*

Yana ushbu misralarda davr ruhini “*tulpor*”, “*shamshir*” so‘zlari orqali sezish imkoniyati tug‘iladi. “*Ulug‘*”, “*tengi yo‘q*” sifatlashlari esa betakror tarixiy obidalarga ishora qilinadi.

Bundan tashqari sifatlashlarning qator kelishi dostonga jozibadorlik, ohangdorlik va estetik zavq bag‘ishlashini ham aytib o‘tish lozim.

*Ne baxtkim, tuqqan yurt bo‘lganda ozod,
Muborak Vatanga qaytib kelmishsiz.
Quloq tutgaymi, deb noahil avlod,
Tashakkur, bizlarni ko‘zga ilmishsiz.³*

Bu yerda ham “*tuqqan yurt*”, “*Muborak Vatan*”, “*noahil avlod*” kabi sifatlashlarni kuzatamiz. Bunda “*tuqqan*” so‘zidagi *dunyoga keltirmoq*, “*muborak*” so‘zidagi *qutlug‘*, “*noahil*”dagi “*parokandalik*” kabi tagma’nolarning yuzaga chiqishi kuzatiladi. Ushbu sifatlashlarda Amir Temur shaxsiga nisbatan yuksak faxr, ehtirom tuyg‘usini his etamiz.

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

² Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

³ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

*Hamon er yuzida shayton tug‘yoni,
Tillarda duoyu, dillarda zarda.
Ko‘rib bu noqisu notinch dunyoni,
Qayta bosardingiz balki sarkarda.¹*

Ushbu satrlarda esa dunyoda hali ham adolat o‘rnatilmagani, bu shunday hisobli va notinch dunyo ekanligi chuqur afsus bilan tasvirlanadi. Yana ushbu ifoda, qaniydi, buyuk sarkarda Amir Temur hayot bo‘lsa, u albatta bugungi kunda ham dunyoda adolatni tiklash uchun qayta kurashgan bo‘lardi degan nadomat hissi bilan yo‘g‘rilgan. Bunda “noqis” leksemasining *bir kam, nuqsonli* kabi ma’nolari anglashiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mustaqillik davrida yaratilgan dostonlarda sifatlashlarning o‘ziga xos manzaralari namoyon bo‘lishi, ko‘proq go‘zal tabiat manzaralarining aks ettirilishi, insonlarning ruhiyati, zohiriy va botiniy tuyg‘ular kurashi bilan bog‘liq yorqin tasvirlar yaratildi. Sifatlashlar, ayniqsa, milliy ruhiyatni ifodalovchi asosiy vositaga aylandi. Ba‘zan sifatlashlarning, ya’ni qator epitet vositalarining birin-ketin uyushib kelishi orqali jonli, badiiy, tarixiy, milliy tasvirlarning yaratilishi Shoir larning individual mahoratlarini belgilovchi muhim omil bo‘ldi.

O‘xshatish. O‘xshatish badiiy asarlarda asrlar osha o‘zining go‘zal ifodasini topib kelgan. O‘xshatish san’atida bir predmet yoki hodisa ikkinchi bir predmet yoki voqelikka o‘xshatilsa, ba’zi o‘rinlarda xuddi shu ob’ekt yana bir boshqa predmet yoki hodisaga o‘xshatilishi kuzatiladi. Ya’ni insonlar o‘ziga noma’lum narsa va hodisalarni o‘ziga ma’lum predmet yoki hodisalar bilan umumiylik tomonlarini o‘xshatib kashf qiladilar. Natijada o‘xshatishning o‘ziga xos turli ko‘rinish, holatlari yuzaga chiqadi. Qo‘llanishiga ko‘ra o‘xshatishlar an’anaviy va individual o‘xshatishlarga guruhlanib, an’anaviy o‘xshatishlarda

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatlar bo'lmaydi. Ijodkor tomonidan qayta ishlangan, original o'xshatishda esa emotsional-ekspressivlik va obrazlilik yaqqol gavdalanib turadi.¹ Ular badiiy asarning barcha komponentlari: portret, ruhiy kechinma, nutqiy tavsif, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga xizmat qiladi.²

Ijodkor o'zini hayratga solgan voqelikni yoxud o'zida ma'lum darajada hissiyot, tuyg'u paydo qilgan narsa, hodisalarni atay biror shunday ob'ektga o'xshatib ta'sirchan nutq yaratadi. Bunday hodisa o'xshatish deb nomlanib, quyidagicha ta'riflanadi: "O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir".³ O'xshatish adabiyotshunoslik va tilshunoslikning o'rganish ob'ektidir. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan u tropning bir ko'rinishi sifatida ifodalanish usullari, struktural sostavi (tuzilishi tarkibi) o'rganilsa, tilshunoslar uni gapning tarkibiy komponenti ekanligi, umuman, til fakti sifatida o'rganadilar. G.F.Kalashnikova, M.I.Cheryomisina, E.T.Cherkasov kabi qator tilshunoslarning ushbu mavzudagi izlanishlarini tahlil qilgan ekanlar, ular asosida o'z qarashlarini ham bayon qiladilar. O'xshatish va metafora tilshunoslarning eng ko'p e'tiborini jalb qiluvchi ob'ekt ekanligini⁴, bu boradagi izlanishlar tilshunoslikning sintaksis sohasi doirasida ekanligini⁵ e'tirof etgan holda, muallif qiyoslash, o'xshatishdagi konstruksiyalarning semantik munosabati, grammatik tahlillari xususida so'z yuritib, bu konstruksiyalarning munosabatida o'xshatish vositalarining rolini ko'rsatib beradi.

O'xshatishni o'rganishda uni metafora – "qisqargan o'xshatish" dan farqli va yaqin keluvchi – o'xshash xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim.

¹Мукаррамов М.Ўзбек тилида ўхшатишлар.Т.,1976.-Б.27.

²Ўша китоб.-Б.27.

³Шомаксудов А.,Расулов И.,Ўзбек тили стилистикаси.Т.,Ўқитувчи,1983.-Б.229.

⁴Калашникова Г.Ф. Семасиология. Харьков,1985.-62с.; Черёмисина М.И.Сравнительные конструкции русского языка - Новосибирск., Наука, 1976. – С.3

⁵Ўша жойда

Bu borada G. Qobiljonovanning ilmiy tadqiqotidagi ba'zi fikrlarni keltirish o'rinlidir. Tadqiqotchi o'xshatish va metafora munosabatini eng munozarali masala ekanligini ta'kidlab, ular o'rtasidagi farqni bir necha jihatdan ko'rsatib beradi:

- shaklan o'xshatishda -dek, -day, go'yo kabi unsurlar ishtirok etadi, metaforada esa qatnashmaydi. Shuning uchun Arastu, A.A.Potebnya, E.Kasyan kabi olimlar metaforani *qisqargan o'xshatish* deb baholaydi.

- mazmunan o'xshatishda o'xshatilayotgan narsa va o'xshatayotgan narsa bir-biridan alohidaligi ko'rinib turadi, metaforada esa ushbu hodisa bir butun deb tasavvur qilinadi.

- usluban o'xshatishda ifoda vositasi o'zning to'liq semalarini saqlaydi, metaforada esa saqlanmaydi.¹

A. Oripov dostonlari tilida poetik nutq hodisalaridan biri o'xshatish ham ko'plab uchraydi.

*Uljoy mening gaplarimga quloq tut andak,
Seni go'yo g'ubori yo'q sahro guliday
O'z bag'riga bosguvchini tushungil deyman.*²

Ushbu misralarda qo'llangan "seni go'yo g'ubori yo'q sahro guliday" birikmasini olib ko'raylik. Bu yerda shoir "go'yo g'ubori yo'q", "sahro guliday" birikmasini qo'llar ekan, o'zi yaratgan yoki murojaat qilayotgan obrazni yoritishda o'ziga xos yo'lni tutadi.

*Biroq sening ochiq go'rdek yuho og'zingni
O'sha paytda yopolmasdan armonda qoldim.*³

¹Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Т., 2000. -24 б.

² Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. ikkinchi jild. T., 2001. -B.389.

³ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. birinchi jild. T., 2000. -B.385.

Ushbu baytda qo‘llanilgan “*ochiq go‘rdek*” birikmasini olib ko‘raylik. Bu yerda shoir “*ochiq go‘rdek*” birikmasini qo‘llar ekan, o‘zi yaratgan yoki murojaat qilayotgan obrazni yoritishda o‘ziga xos yo‘lni tutadi. Kitobxon ushbu birikmaning mag‘zini chaqar ekan, so‘z yuritilayotgan obrazning qay darajada salbiy ekanligini bilib olish unchalik qiyin bo‘lmaydi. Birikmadagi “*ochiq*”, “*go‘r*” leksemalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda “*ochiq*” leksemasi tarkibidagi belgi, kenglik, hajm kabi mavjud ma‘nolar majozni ifodalashi kuzatiladi. Shoir ushbu birlikni qo‘llash orqali muayyan poetik hodisani, ya‘ni o‘xshatishni yuzaga chiqaradi. “*Ochiq go‘rdek*” birikmasi o‘zining majoziy ifoda imkoniyatlari bilan, butun borlig‘icha insonga, matnda anglashilayotgan obrazga ko‘chiriladi va *og‘zi ochiq, vaysaqi, og‘zi shaloq, tuhmatchi, g‘iybatchi singari* botiniy ma‘nolariga ishora qiladi. Bu yerda “*yuho*” so‘zidagi o‘ziga xos “*yeb to‘ymas, ochofat*” kabi ma‘nolar birinchi planga chiqadi.

Uning aybi nima edi?

Nahotki iblis

Och bo‘ridek bir qo‘zini albatta yegay.¹

Ushbu satrlardagi “*och bo‘ridek*” iborasiga e‘tiborimizni qaratsak, o‘zaro sintagmatik munosabatga kirishgan “*och*” va “*bo‘ri*” so‘zlarining mavjudligi kuzatiladi. Bu yerda “*och*” leksemasiga tegishli “*nazari och, eb to‘ymaslik, qorni och, ochlik, muhtojlik, iqtisodiy etishmaslik, kamchilik, nuqson*” kabi ichki yashirin ma‘nolari namoyon bo‘ladi. “*Och bo‘ridek*” birikmasida ham biz yuqorida mulohaza yuritgan “*ochiq go‘rdek*” birikmasi kabi asl ma‘no, ya‘ni hayvon (*bo‘ri*)ga xos xususiyatlarning shaxsga ko‘chirilishi majozni yuzaga chiqaradi. Bu yerda “*bo‘ri*” so‘zining “*nafsi och, eb to‘ymas, nazari och, ochofat*” kabi semalariga ishora qiladi. Hayvonga xos xususiyatlarning majoz orqali shaxsga ko‘chirilishi obrazni yorqinroq, barcha salbiy, o‘ziga xos

¹Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.389.

xususiyatlari bilan ochib berishga, yanada bo‘rttiribroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

*Xalq shunday bir dengizdirki, yo‘qdir qirg‘og‘i,
Bu dengizga sho‘ng‘ish kerak, misli quv-g‘avvos.¹*

Xalqning dengizga o‘xshatilishi “xalq”, “dengiz” so‘zlarining hajm va miqdor ifodalovchi uzvlariga ishora qiladi va asarda anglashilayotgan shaxsning o‘z maqsadlarini amalga oshirishda xalqqa yaqin bo‘lib olish, uning ichida bo‘lishi, ishonchiga kirib olish kerakligi ta’kidlanadi.

*Biz ilondek foydalanib hiyla kuchidan
G‘iloflarga kirib olsak bo‘ldi ulgurib.*

Ushbu ifodada ham “ilondek” lug‘aviy birligining zaharli, sudralib yuruvchi, ayyor kabi ma’nolari haqida fikr aytish mumkin. Ifodadagi “ilon” so‘zining ayyorlik asosiy ichki ma’nosiga e’tibor qaratiladi va ilonning ayyorlik, uddaburonlik xususiyatlari obrazga ko‘chirilishi bilan o‘xshatish san’ati yuzaga chiqadi. Mustaqillik davrida yozilgan dostonlarda yaratilgan o‘xshatishlardagi milliy ruhni, o‘xshatish vositalarining o‘ziga xosligini kuzatamiz.

*Faxr eturman men xalqimning san’ati bilan,
Uning ko‘ngli xuddi o‘sha paxtasidek oq.²*

Ifodada Shoir asar qahramonining o‘z xalqiga, uning san’atiga bo‘lgan cheksiz hurmatini ifodalash uchun o‘ziga xos o‘xshatishni qo‘llagan, ya’ni o‘zbekning ko‘ngli o‘zi etishtirgan oppoq paxtasiga qiyoslanadi. O‘xshatish vositasi *-dek*, belgisi *oqlik, beg‘uborlik*.

Quyidagi misralar ham milliy ruh bilan sug‘orilganini, ijodkorning o‘z xalqiga, xalq qahramonlariga bo‘lgan cheksiz g‘urur va faxr tuyg‘usini his qilamiz.

Har qancha faxr etsang arziydi o‘zbek,

¹ Abdulla Oripov Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

² Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar.birinchi jild.T.,2000.-B.385.

Balqibsan bir zotning yuksak shonida.

Temurbek yulduzi Oltin qoziqdek,

CHaraqlar buyuklar kahkashonida.¹

Ijodkor Temurbek yulduzini Oltin qoziqqa o‘xshatadi. Ifodadagi oltin leksemasi o‘z ma’nosidagi zanglamaslik, o‘z xususiyatini yo‘qotmaslik, behaholik, yaltiramoq, yonib turmoq kabi semalariga emas, balki majoziy ma’nodagi ulug‘lik semasiga ishora qilishi bilan birga Turkiston, ya’ni o‘zbek zaminida voyaga etgan buyuk sarkarda – Amir Temurning jahon hamjamiyatida ham o‘ziga xos o‘rni borligini e’tirof etadi va o‘zbeklarga qarata murojaat qilar ekan, har qancha faxr etsang arziydi o‘zbek, deydi baralla.

Jonlantirish. Abdulla Oripov dostonlarida yana bir tasviriy ifoda vositasi bo‘lmish jonlantirish san’ati ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Jonlantirish tasviriy vositalarning qadimgi turlaridan bo‘lib, og‘zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. U, ayniqsa, badiiy tasvirning jonli, ta’sirchan, yorqin va obrazli ifodasini ta’minlovchi omillardandir. Jonlantirishni xalq og‘zaki ijodi namunalari – ertak, rivoyat, masal va dostonlarda ko‘plab uchratish mumkin. Jonlantirish san’ati mumtoz adabiyotimizda “tashxis”, “intoq” nomlari bilan yuritilgan. Ushbu san’atning noyob durdonalari, ma’naviy qadriyatlarimizdan sanalmish adabiy merosimizda o‘ziga xos aksini topgan. Ma’lumki, jonlantirish metofoaning maxsus turi bo‘lib, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg‘usi predmetlarga ko‘chiriladi. Boshqacha aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so‘zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirishdir.²

Jonlantirish tilshunoslikning muhim o‘rganish ob’ekti hisoblanadi. Unga leksik vositalarning valentlik xususiyati ishora qilib turadi. Ayrim o‘zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalarning til sathida o‘zaro birikuvchanlik (valentlik) xususiyati bo‘lmaydi. Jonlantirish hodisasi yuzaga

¹Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001. - B.472.

²Расулов И., Шомаксудов А. Ўзбек тили стилистикаси. - Т.:Ўқитувчи, 1983. – Б.245.

chiqish jarayonida sintaktik birliklarning jonlilik va jonsizlik semalari mavjud bo'lgan holda, ushbu semalar yuqoridagi sintaktik birliklarning sintagmatik munosabati uchun mone'lik qilsa-da, o'zaro bog'lanishi kuzatiladi. Badiiy nutqda, aynan dostonlar tilida bunday zid semali birliklarning sintagmatik munosabatga kirishuvi obrazlilikni, ifodalilikni, estetik zavqni ifodalaydi. Jonlantirishning jonlantirilayotgan ob'ektga ko'ra turlari mavjud:

1. Jonsiz predmetni jonlantirish.
2. Jonli mavjudotlarga insonga xos xususiyatlarni ko'chirish.
3. Tabiat hodisalarini jonlantirish.
4. His-tuyg'u, ruhiyat bilan bog'liq tushunchalarni jonlantirish.

Jonlantirish jonlantirilayotgan ob'ektga qaysi xususiyatlarni ko'chirish hisobidan ham farqlanadi:

1. Harakatning ko'chishi.
2. Tuyg'uning ko'chishi.
3. Holatning ko'chishi.
4. Nutqiy qobiliyatning ko'chishi.
5. Belgi-hususiyatlarning ko'chishi.¹

Harakatning o'zi ham insonga va boshqa mavjudotlarga xos bo'lgan harakat jihatidan farqlanadi. Jonsiz narsalar yoki mavjudotlarda insonga xos harakatlar rus filologiyasida personifikatsiya (shaxslantirish) deb ataladi.

Tasviriy vositalar badiiy asarda ijodkor maqsadini, g'oyasini ochib berishda muhim omil sanaladi. Xususan, jonlantirishlar mustaqillik davri yozma dostonlari tilida o'ziga xos muayyan vazifalarni bajaradi:

1. Jonli tasvir inson ichki va tashqi ruhiyati olamini, hislari, tuyg'ulari, dard va hasratlarini ro'yobga chiqaradi. Bunda jonlantirilayotgan ob'ekt (narsa yoki hodisa) ruhiyati va epik qahramonning holati, kayfiyati bilan uyg'unlashadi.

2. Individual, obrazli, yorqin va ta'sirchan badiiy tasvir yaratadi;

¹ Новиков Л.А. Семантика русского языка. М., 1982. - С.35.

milliylik, milliy ruh o‘z ifodasini topadi.

3. Jonlantirilayotgan ob’ektning (narsa va xodisalarning) nutqiy qobiliyatga ega bo‘lishi esa majoziy fikr ifodalashning muhim omili hisoblanadi.

A. Oripovning “Hakim va ajal” dostonida jonlantirishning o‘ziga xos ko‘rinishlari namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

Bir narsada tanti erur doim tabiat,

Idrok bersa qaramagay usti-boshingga.

Neca-necha saroylardan hatlab o‘tgan baxt,

Nogahoniy Humoy bo‘lib kelar qoshingga.¹

Bu o‘rinda esa jonlantirish san’ati ham qo‘llanilgan. Bu yyerda shoir “*tanti erur doim tabiat*“ deya insonlarga xos harakat tabiatga ko‘chirilib, mavhum tushuncha baxtga “*hatlab o‘tgan*” esa xuddi jonli mavjudot misoli tasvirlanadi. Bu kabi go‘zal jonlantirish ifodadagi obrazlilikni ta’minlaydi, ta’sirchanlik va hayratni oshirib, e’tiborni tortadi.

Quyidagi parchalarda insonga xos fazilat “vafo qilmoqlik”, umrga ko‘chirilib jonlantirilishi va uning asar personaji hayoti bilan bog‘liq holati diqqatimizni tortadi.

Agar umr vafo qilsa, izn etsa zamon,

Afshonaga ketajakman qalandar bo‘lib.²

kabi ifodalarda jonlantirish hodisasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu ifodada ijodkor jonlantirishning go‘zal namunasini yaratgan. Bunda insonga xos bo‘lgan ruhiy holat, kishilarga xos xususiyat, ya’ni o‘ta xursand bo‘lib quvonib ketish, o‘ziga sig‘maslik, surur *olam*, ya’ni borliqqa ko‘chirilib, satrlararo ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Dostonning estetik qimmatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qirq kun zafar nashidasin sursin Samarqand,

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. T., 2000.-B.371.

² Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. T., 2000.-B.387

Yetti iqlim to'y o'tkazsin biz bilan birga.¹

Ifodadagi *Samarqand atoqli* otining jonlantirilishi epik qahramonning ruhiyatini aks ettiradi. Jonlantirishdagi izchillik go'zal manzara yaratish bilan obrazlilikni ta'minlaydi. Liro-epik qahramon ruhiy holatini tabiat bilan uyg'unlashtiradi, uning xayolot dunyosi chegara bilmasligiga ishora qiladi.

*Siz tunlari uxlagaysiz oyoq uzatib,
Shohni esa tergab chiqar uyg'oq vijdoni.²*

Ushbu ifodada ham jonlantirish hodisasini kuzatish mumkin. Bu yerda insonga xos xususiyatlarning "uyg'oq"lik yurakka ko'chirilishi bilan mazkur nutq hodisasi yuzaga chiqadi. Ushbu jonlantirish kuchli hayratni ifodalaydi.

*Ana, ikki Mirzo bilan keldi Malika,
Bamisoli qo'sh yulduzniyetaklagan oy.*

Bu yerda insonga xos xususiyatlar tabiat hodisalariga ko'chiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan mustaqillik davri yozma dostonlarida bunday jonlantirishlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ularning har biri o'z talqini, jilosi va g'oyasiga ega. Ular o'ziga xos usullarda badiiy asar ta'sirchanlagini oshiradi va obrazlilikni ta'minlaydi. Xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ijodkorlar birgina dostonda o'nlab shunday san'atning betakror namunalaridan unumli foydalana olganlar.

Mubolag'a. Dostonlarda ko'chim turlaridan bo'lgan mubolag'a san'ati ham muhim o'rin egallaydi.

A.Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostonida Yigitning jannatga kirishi uchun ikki paysa savob yetishmasligi ayon bo'ladi. Aslida, hayot davom etar ekan, olamdagi barcha narsalar doimo uzluksiz harakatda ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz va hech bir narsa o'z-o'zidan, sababsiz joyida to'xtab, qotib qolishi mumkin emas, bu hayot haqiqatiga to'g'ri kelmaydi. Ushbu holat esa dostonida ijodkor tomonidan qo'llangan kuchli mubolag'a orqali doston

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001.-B. 451.

² Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001.-B. 476.

qahramonining ruhiyatidan kelib chiqadi va uning uchun hayot to‘xtab qolganday, hamma narsalar jonsiz, qotib qolganday tuyuladi. O‘zining hayot yo‘lini birma-bir ko‘z o‘ngidan o‘tkazgan Yigitning arosatga noil bo‘lishiga uning bu dunyoda o‘g‘ri, kazzob, poraxo‘r, ig‘vogar, hasadgo‘y, nokas, ruhi majruh kimsalarga qarshi kurashmay, odamzodning yo‘ldan ozishiga ulush qo‘shganligida ekanligini anglay boshlaydi. Ezgulikning yo‘li to‘siq qo‘yilganidan:

*Yer yuzida jangler kechdi qattiq, qatag‘on,
Onalarning diydasidan oqdi qonli yosh¹.*

Bu yerda qahramon nokas kimsalar tufayli urushning kuchli olovida yonib ketgan onalarning dod-faryodi, “qonli yosh”i kuchli mubolag‘a orqali yoritib berilyapti.

*Muntazirmiz amringizda, o, Sohibqiron,
Siz amr eting – kemirgaymiz Ko‘hi Qofni ham ,
Siz amr eting – simirgaymiz Bahru ummonni.²*

Bu yerda Barlos bahodirning sadoqati “kemirgaymiz Ko‘hi Qofni ham” “simirgaymiz Bahru ummonni” mubolag‘asini qo‘llash orqali namoyon bo‘lyapti. Mubolag‘a san‘atida tashbehlar muhim o‘rin egallaydi. Har qanday san‘at turi, shuningdek, so‘z san‘ati ham originallik va rang-baranglikni sevadi.

Yuqorida biz fikr yuritgan badiiy tasvir vositalari- epitet va o‘xshatishlar mustaqillik davri dostonlari tilining shirali, bo‘yoqdor, ta‘sirchan, ohangdor va jozibali bo‘lishiga yordam beruvchi omillardan bo‘lib, dostonlarning asosiy g‘oyasini ochib berishda, ijodkor badiiy-g‘oyaviy estetik niyatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. T., 2000.-B.413.

² Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001.-B.394

Bob bo'yicha qisqa xulosalar

1. Abdulla Oripovning mustaqillik davrida yaratilgan yozma dostonlarda badiiy vositalar tarixiylik, milliylik, mustaqillik, ozodlik, erk tuyg'ulari singdirilgan ramziy va obrazli tasvirlar yaratishda asosiy omil bo'ladi. Ular yordamida yaratilgan badiiy nutq tagma'nolarga, majoziy xarakterga egaligi, ramziy, falsafiy, tarixiy, mantiqiy fikrlarga boyligi, milliy ruhiyatni aks ettirishi bilan farqlanadi.

2. Badiiy til va poetik nutq hodisalarini yuzaga chiqishi esa ijodkorning o'ziga xos individualizmi va kasbiy mahoratidan dalolatdir. Troplar, xususan, metafora, jonlantirish, epitet, o'xshatish, metonimiya va sinekdoxalar mustaqillik davrida yaratilgan dostonlarga o'zgacha joziba, shavq, musiqiylik, ohangdorlik, boy mazmun, tarixiylik, tantanavorlik baxsh etishi bilan birga uning estetik qimmatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

3. Abdulla Oripov dostonlarida badiiy vositalarning mavzu bilan uzviy bog'langan, davr ruhiyati bilan sug'orilgan go'zal namunalari kuztildi. Ular ijodkorlarning yaratuvchanlik mahorati va uslubidan kelib chiqqan holda o'ziga xoslikni, bo'yoqdorlikni kashf etadi. Badiiy tasvirning eng qadimgi usuli bo'lgan metafora bugungi kunda yozilayotgan yozma dostonlar uchun ham xalqchil fikr ifodalashda, badiiy ifoda estetik qimmatida asosiy vosita hisoblanadi.

4. Metonimiya cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, poeziyada, asosan, liro-epik asarlarda, ayniqsa, Abdulla Oripov dostonlarida ham metonimiyali ifodalar ma'no ko'chirishda o'ziga xos xususiyatga egadir. O'rganilayotgan davr dostonlarida ular juda kam uchradi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Mustaqillik jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub o'zgarishlar yasadi. O'zbekiston jahonga yuz tutdi. Ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida o'tkazilib kelayotgan islohotlar nafaqat ma'naviy va madaniy turmush tarzimizga, ruhiyatimizga, Shuningdek, o'zbek adabiyoti badiiyatiga ham o'ziga xos ta'sirini o'tkazdi. Badiiy ijod qadimgi an'analarga sodiq qolgan holda mustaqillik tufayli yanada o'ziga xos tarzda rivojini topdi. O'zbek ijod ahli ham zo'r mahorat bilan bor iqtidor va imkoniyatini ishga solib ijod qila boshladi. Ijodiy mahoratdagi originallik, shakliy topilmalarning turli-tumanligi biz o'rganayotgan Abdulla Oripov dostonlarida o'zning betakror ifodasini topdi.

2. Abdulla Oripov asar badiiyligini ta'minlovchi tasviriy vositalardan o'rinli foydalandi. Dostonlarda qo'llangan har bir so'z va element o'ziga xos muayyan funksiyani bajarishga xizmat qildi. Leksik vositalar voqelikni ifodalovchi omil vazifasini bajarar ekan, ayniqsa, qo'shimcha ma'no ifodasida nutq ohangi va tempiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatdi. Ular dostonlar tiliga jozibadorlik, musiqiylik baxsh etadi. Abdulla Oripov dostonlarida sinonimlar etalonidan uslubiy g'alizlik va bir xillikning oldini olish maqsadida unumli va o'rinli foydalana oldilar. Omonimlar ham dostonlar badiiy estetik qimmatida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ular doston misralariga obrazlilik va musiqiylik baxsh etadi, ba'zan esa nominativ funksiyani ham bajaradi.

3. Dostonlar tili ma'lum darajada individual neologizmlar bilan boyidi va ijodkor mahoratini belgilash omili bo'la oldi. Istorizmlar tarixiy davrdagi voqea,

hodisa va tasvirning haqqoniy ifodasi bo‘libgina qolmay, balki tasvir etilgan davr ruhini berishda asosiy vosita vazifasini bajardi.

4. Abdulla Oripov dostonlarida iboralar, xalq maqollari va matallaridan o‘ziga xos uslubda unumli foydalanilgan. Shoir ijodiy yondashgan holda tayyor ibora va maqollarga yangicha ma’no berish bilan birga ibora va maqollarning yangidan - yangi shakllariga asos soldilar. Abdulla Oripov dostonlarida jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish va metafora, metonimiya va sinekdoxalarning original, milliy ruh bilan sug‘orilgan, tarixiy va ijtimoiy muhit ruhiyati aks etgan betakror namunalari yaratildi. Ular, asosan, ishq, muhabbat, sadoqat, sevgi, vafo, poklik, ezgulik kabi insoniy tuyg‘ularga boy bo‘lib, go‘zal tasvirlar yaratish omili bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabrda nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

5. Abdullaev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. T., 1983. - 88b.
6. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi. T., Fan, 1981. - 60 b.
7. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. T., 2001, 389-b.
8. Asallaev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san’at jozibasini. T., 2005. - 64b.
9. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T., Fan, 1985. – 200 b.

10. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., 2001. – 192 b.
11. Doniyorov X., Mirzaev S. So‘z san’ati. T., O‘zadabiynashr, 1962,- 173 b.
12. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, 1980. - 250 b.
13. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, Fan, 2007. – b.
14. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. T., 1982, - 148b.
15. Qo‘ng‘urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., O‘qituvchi, 1992. - 160b.
16. Qo‘chqorov R., Qo‘chqortoeva. Tilshunoslikka kirish. T., 1976. - 148b.
17. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil.- T., O‘qituvchi, 1995. – 58b.
18. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T., 2008. – 186b.
19. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi.-T.:2010-288b.
20. Mengliev S. SHE’riy kontekstda so‘zning badiiy funksiyasi. T. , 1985. – 134b.
21. Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatishlar. T., 1976. - 58 b.
22. Mo‘minov G‘. Hozirgi o‘zbek dostonchiligida uslubiy izlanishlar // O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. Toshkent, Fan, 1983. – 204 b.
23. Ne‘matov H., Bozorov O. Til va nutq. T., 1993. - 32b.
24. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent, Akademnashr, 2012. – 414 b.
25. Rasulov I., SHomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. T., O‘qituvchi, 1983. – 245 b.
89. Suvonova R. A. Oripov she’riyatida metonimiyaning ayrim xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1999. - № 5.
26. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1992, - 400b.
27. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so‘z. T., Fan, 1981. - 134b.
28. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. T., O‘zbekiston, 2001. – 236b .

- 29.O‘zbek tili leksikologiyasi. T., Fan nashriyoti, 1981. - 306b.
- 30.O‘zbek tili praktikumi 1 - qism [Fonetika. Leksikologiya. Frazeologiya. Morfemika. So‘z yasalishi]
- 31.O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzaev...) T., 2003.- 512b.
- 32.Hojiahmedov A. SHe’riy san’atlar va mumtoz qofiya, T., 1998, - 74 b.
- 33.Shoabdurahmonov SH., Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili. T., 1980, - 256b.

Internet manbalar

- 1.[https://ziyouz.uz/suhbatlar/til-ruhimiz-tarjimoni-adabiyotshunos-olim-vahob-rahmonov-bilan_muloqot/](https://ziyouz.uz/suhbatlar/til-ruhimiz-tarjimoni-adabiyotshunos-olim-vahob-rahmonov-bilan-muloqot/)www. muslim. uz/index. php/maqolalar/item/
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tajnis>

**QDPI magistratura bo'limi o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II
bosqich talabasi Djo'rayeva Muazzamning "Abdulla Oripov
dostonlari lingvopoetikasi" mavzusidagi magisrlik dissertatsiyasiga**

RAHBAR XULOSASI

Til millat ruhidir. Tilsiz millat jonsiz tanadir. Millatning tili qancha boy bo'lsa, uning tafakkuri, bilimi va ilmi shuncha yuksak bo'ladi, agarda fikrlash qobiliyati kambag'al bo'lsa, o'z iste'dod va bilimlarini boshqalarga yetkazish ham shuncha qiyin bo'ladi. Til millatning borliq imkoniyatini ro'yobga chiqaradigan va boshqalarning imkoniyatidan bahramand qiladigan vositadir. Shuning uchun til har bir xalqning ziyoli kishilari ardog'ida bo'lib kelgan, shunday bo'lmog'i kerak. Har bir millat o'z tilini o'zining eng buyuk qimmatli mulkiday e'zozlaydi. O'z tilining sofliğiga, boyligiga va kelajakda iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishining muhim vositasi sifatida jon kuydiradi.

Djo'rayeva Muazzamning "Abdulla Oripov dostonlari lingvopoetikasi" mavzusidagi magisrlik dissertatsiyasida tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi bo'lgan lingvopoetikani ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor berilgan. Mustaqillik yillarida adabiyotni mafkura vositasi sifatidagina emas, balki san'at hodisasi sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat berila boshlandi. Shu ma'noda alohida ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, ijodiy uslubiga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab she'riyatimiz yangilanish davriga kirdi. Yangilanish mazmundagina bo'lmay, ifoda tarzida ham to'la namoyon bo'ladi. Shu davrdan e'tiboran o'zbek she'riyati 30-yillardan boshlab urfga aylangan ritorikadan voz kechdi va obrazli tafakkur tomon yuz burdi, ya'ni asliga qayta boshladi. Ushbu jarayonda Abdulla Oripov ijodi juda muhim bir halqani tashkil etadi. Zero,

uning ijodida davr she'riyatida kuzatilgan asosiy tamoyillar o'zining aksini topgandir. Mavzuning o'rganilishi XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotida muhim bir bosqich haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi.

MDning I bobi badiiy nutqning lingvopoetik aspektda o'rganilishi deb nomlanadi. Hayotdagi har bir fan jamiyat rivoji bilan bog'liq holda taraqqiyotda ekan, tilshunoslik ham turli davrlarda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgani bizga ma'lum. Til jamiyatda yashaydi va jamiyat bilan teng o'sishda, rivojlanishda bo'ladi, zero, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til mavjud emas. Kishilik jamiyatida aloqa-aralashuvni ta'minlovchi muhim vosita hisoblangan til haqidagi talqinlar bugungi kunda rivojlangan va murakkablashgan. Til hodisalarini tavsiflashga antroponimik yondashuv rivojlanishi munosabati bilan tilning fonetik qurilishini tadqiq etish faollashdi. She'riyat qadimda dastlab eshitishga asoslanib yaratilgan, Shuning uchun badiiy asar tilining qabul qilinishi vizual emas, jonli intonatsion jarangi bilan eshinishi kerak. Bu esa axborotning estetik jihatini kuchaytiradi, xabar beruvchining hissiy munosabatini aks ettiradi, tinglovchiga shu hissiy ta'sir yetkaziladi

Talaba bu bobda badiiy nutq tadqiqida stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos estetik vazifani bajarishi, badiiylik har qanday asarning bosh mezon bo'lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishi, badiiy adabiyot tili obrazli nutqning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi til ekanligini, falsafadagi dialektika qonuni tilshunoslikka, til amaliga, ayniqsa, she'riyatga ham aloqadorligi, chunki adabiyot, poeziya muayyan davrlarda o'ziga xos ko'rinishda o'zini namoyon etishi va bunday badiiy asarlar tahlili va muayyan ijodkorning badiiy mahoratini aniqlashda hamda til taraqqiyotini kuzatishda yordam berishi masalalarini yoritish maqsadini qo'ygan, yorita olgan.

II bob Abdulla Oripov dostonlarining leksik-semantik xususiyatlari deb nomlanib, bu bobda Abdulla Oripov dostonlarining leksik poetikasi davr ruhiga

mos ravishda o'ziga xos yangilanish davrini boshlab bergani haqidagi fikrlarini izchil yoritgan.. Bu davr yozma dostonlari tilida qo'llanilgan so'zlar o'zlarining rang-barang ma'no jilolari bilan ramziy, mantiqiy, falsafiy, tarixiy, tanqidiy fikr ifodalash, jamiyat hayotidagi muammolarni, ozodlik, mustaqillik, erk tuyg'ularini, milliy ruh va kayfiyatni aks ettiruvchi omil bo'ldi. So'zlarning yangi ma'nolari asosida ruhiy tozalanish, o'z milliy tarixini anglash, milliy o'zlikka intilish, diniy va milliy qadriyatlarimizni tiklash, sevgi va sadoqatni, ezgulikni ulug'lash, inson ichki ruhiy olami, uning erki, ozodligi uchun kurash tasvirlari yaratildi. Dissertatsiyada A. Oripov dostonlarida qo'llangan har bir so'z o'z imkoniyatlari darajasida aks etishi masalalari o'rganilgan . Bu haqdagi fikrlar misollar orqali isbotlangan.

Magisrlik dissertatsiyasining III bobi Abdulla Oripov dostonlarida qo'llanilgan ko'chimlarning lingvopoetik tadqiqi deb nomlanadi. Bu bobda badiiy til va poetik nutq hodisalarini yuzaga chiqishi esa ijodkorning o'ziga xos individualizmi va kasbiy mahoratidan dalolat ekanligi, troplar, xususan, metafora, jonlantirish, epitet, o'xshatish, metonimiya va sinekdoxalar A. Oripov dostonlariga o'zgacha joziba, shavq, musiqiylik, ohangdorlik, boy mazmun, tarixiylik, tantanavorlik baxsh etishi bilan birga uning estetik qimmatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etishi masalalariga munosabat bildirilgan.

Tadqiqotning asosiy boblari va xulosasi ham ko'plab ilmiy fakt va xulosalarga boy, qiziqarli tadqiqot natijasi sifatida yuzaga kelgan. Magisrlik dissertatsiyasi tuzilishi, hajmi, maqsadning qo'yilishi hamda vazifalarning bajarilishi jihatidan talab darajasida shakllantirilgan. Mavzu bo'yicha tuzilgan reja izchil va o'zaro mutanosiblikka ega. Har bir faslda ilmiylik me'yorlariga amal qilingan va asosli xulosalar bilan yakunlangan. Bular bilan birga bildirilgan xulosalar talabning mustaqil qarashlariga asosan berilganligi ham diqqatga sazovor.

Ishda ayrim uslubiy g'alizliklar, imloviy xatolar bor.

Xulosa qilib aytganda, ushbu magistrlik dissertatsiyasida olg'a surilgan fikr, xulosalari o'ziga xos ilmiy yoritilgan va ishni yakunlangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

M.Ergashova

f.f.nomzodi, dotsent

**QDPI magistratura bo'limi o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II
bosqich talabasi Djo'rayeva Muazzamning "Abdulla Oripov
dostonlari lingvopoetik xususiyatlari" mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasiga**

TASHQI TAQRIZ

Muborak hadisi shariflarda «Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir» deyiladi. «Odobning boshi til» ekanligini Mahmud Qoshg'ariy bobomiz maqol tarzida qayd qilgan. Bizda, bizning madaniyatimizda latif so'zga oshuftalik, nutq latofatidan zavqlanish, ona tilida ta'sirli nutq ayta oluvchiga ayricha havas bilan qarash azaliy urflardan hisoblangan. Sharqda, xususan, o'zbeklarda so'z bilan tinglovchining faqat qulog'ini emas, balki qalbini ham zabt eta bilish tarbiyalilikning, ziyolilikning belgilaridan biri sanalgan. Zotan, nutqning go'zalligi, nutqiy ifodaning aniqligi, rasoligi inson uchun o'ziga xos husn bo'lib, u millatning, jamiyatning umumiy madaniy kamolotini shakllantiradi.

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning olti fasldan iborat ilmiy tadqiqot qismida ishning maqsad va vazifalari yetarli darajada ochib berilgan. Tadqiqotni kuzatish jarayonida muallifning mavzu yuzasidan ko'plab ilmiy va badiiy adabiyotlarni ko'zdan kechirganligini bilishimiz mumkin.

MDning I bobi bobi badiiy nutqning lingvopoetik aspektda o'rganilishi deb nomlanadi. Hayotdagi har bir fan jamiyat rivoji bilan bog'liq holda taraqqiyotda ekan, tilshunoslik ham turli davrlarda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgani bizga ma'lum. Til jamiyatda yashaydi va jamiyat bilan teng o'sishda, rivojlanishda bo'ladi, zero, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til mavjud emas. Kishilik jamiyatida aloqa-aralashuvni ta'minlovchi muhim vosita hisoblangan

til haqidagi talqinlar haqida nazariy ma'lumot berilgan. Inson dunyoni bilish jarayonida ifoda etishning turli usullardan foydalanadi. Bunday usullar ichida eng keng tarqalgan va qulay qo'llaniladigan usullardan biri qiyoslash-taqqoslash usulidir. Qiyoslash insonning bilish jarayonida katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet voqea-hodisani uning tomonlarini aniqlash maqsadi bilan qiyoslash tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biridir. Bugungi kunda tilshunoslikning barcha yo'nalishlari o'rganish obyektiga til egasi va uning jonli nutqini o'rganishni vazifa qilib qo'yimoqda.

II bob Abdulla Oripov dostonlarining leksik-semantik xususiyatlari deb nomlanib, bu bobda Abdulla Oripov dostonlarining leksik poetikasi davr ruhiga mos ravishda o'ziga xos yangilanish davrini boshlab bergani haqidagi fikrlarini izchil yoritgan.. Bu davr yozma dostonlari tilida qo'llanilgan so'zlar o'zlarining rang-barang ma'no jilolari bilan ramziy, mantiqiy, falsafiy, tarixiy, tanqidiy fikr ifodalash, jamiyat hayotidagi muammolarni, ozodlik, mustaqillik, erk tuyg'ularini, milliy ruh va kayfiyatni aks ettiruvchi omil bo'ldi. Bu haqdagi fikrlar misollar orqali isbotlangan.

Magisrlik dissertatsiyasining III bobi Abdulla Oripov dostonlarida qo'llanilgan ko'chimlarning lingvopoetik tadqiqi deb nomlanadi. Bu bobda badiiy til va poetik nutq hodisalarini yuzaga chiqishi esa ijodkorning o'ziga xos individualizmi va kasbiy mahoratidan dalolat ekanligi, troplar, xususan, metafora, jonlantirish, epitet, o'xshatish, metonimiya va sinekdoxa kabilar yoritilgan.

Talaba mavzu doirasida to'plagan materialini reja asosida saralab tahlil doirasiga tortgan. Bitiruvchi mustaqil fikriga ega. Misollar asosida tegishli xulosalar chiqara olgan. Mavzuga doir adabiyotlar o'rganilgan. MD yuzasidan yetarli misol to'plagan.

Ishda ayrim kamchiliklar ham bor. Uslubiy g'alizlik va imloviy xatolar mavjud.

Ushbu tadqiqot tuzilishi, hajmi, mazmuni va mavzuning izchilikda yoritilishiga ko'ra magisrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablar darajasida shakllangan. Ushbu tadqiqotni tugallangan ishlar qatorida baholash mumkinligini ta'kidlab, muvaffaqiyatli ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi: **NamDU professori, f.f.doktori Usmonova H.**

**QDPI magistratura bo'limi o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi II
bosqich talabasi Djo'rayeva Muazzamning "Abdulla Oripov
dostonlari lingvopoetik xususiyatlari" mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallikni namoyon qilish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning barchasi muhim. Shuning uchun tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'lmaydi.

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning olti fasldan iborat ilmiy tadqiqot qismida ishning maqsad va vazifalari yetarli darajada ochib berilgan. Tadqiqotni kuzatish jarayonida muallifning mavzu yuzasidan ko'plab ilmiy va badiiy adabiyotlarni ko'zdan kechirganligini bilishimiz mumkin.

Dunyo tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lingvopoetika sohasining badiiy asar tahlilidagi o'ziga xos o'рни va ahamiyati haqidagi ilk ilmiy-nazariy qarashlar ishlab chiqildi va ushbu sohaga oid muammolarni tadqiq etish jarayonida lingvopoetika, pragmalingvistika va lingvostilistika kabi yo'nalishlar bilan birga taraqqiy etdi. Amalga oshirilayotgan nazariy tadqiqotlarning amaliy aspektlarini yoritish zamonaviy tadqiqotlarning asosi sanaladi. Shu tufayli badiiy asar tilining lingvopoetik aspektlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Magistrant mavzu doirasida to'plagan materialini reja asosida saralab tahlil doirasiga tortgan. Bitiruvchi mustaqil fikriga ega. Misollar asosida tegishli

xulosalar chiqara olgan. Mavzuga doir adabiyotlar o'rganilgan. Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan yetarli misol to'plagan.

Dastlab magistrant o'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari va uning turlari tasnifiga to'xtalgan. O'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlarining uslubiy-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lgan lingvopoetikaning o'rganilishidagi ijobiy holatlarni va salbiy xususiyatlarni ko'rsatishga erishgan.

Xulosa qismida o'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari, ularni o'rganishda o'zbek tilshunosligi oldida turgan vazifalar haqida fikr-mulohazalarini bildirgan.

Ishda ayrim kamchiliklar ham bor. Uslubiy g'alizlik va imloviy xatolar mavjud.

Ushbu tadqiqot tuzilishi, hajmi, mazmuni va mavzuning izchillikda yoritilishiga ko'ra magistrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablar darajasida shakllangan. Ushbu tadqiqotni tugallangan ishlar qatorida baholash mumkinligini ta'kidlab, muvaffaqiyatli ish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**QDPI BTM kafedrası
dotsenti D. Jamoliddinova**

